

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

---

XAYRIDDIN SULTONOV, MURTAZO QARSHIBOYEV

# VATAN TUYG‘USI

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING  
6-SINFLARI UCHUN O‘QUV QO‘LLANMASI

*Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi  
nashrga tavsiya etgan*

*To‘ldirilgan va qayta ishlangan 7-nashri*

TOSHKENT «MA’NAVIYAT» 2015

UO‘K 94(575.1)  
 KBK 74.200.50ya721  
 S 91

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinflari uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» hamda «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitoblari asosida qayta ishlangan. Unda Vatanga muhabbat va vatanparvarlik asoslarini shakllantiradigan mavzular o‘quvchilarning o‘ziga xos tushuncha-tasavvurlarini hisobga olgan holda, qiziqarli misollar, hayotiy dalillar hamda zamonaviy metodik usullar vositasida yoritib berilgan.

UO‘K 94(575.1)  
 KBK 74.200.50ya721

Mas‘ul muharrir:  
*falsafa fanlari nomzodi **Abdurahim Erkayev***

S 91 **Sultonov X., Qarshiboyev M.**  
 Vatan tuyg‘usi: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinflari uchun o‘quv qo‘llanmasi. – To‘ldirilgan va qayta ishlangan 7-nashri. – T.: «Ma‘naviyat», 2015. – 120 b.

I. Muallifdosh.

ISBN 978-9943-04-138-7

### SHARTLI BELGILAR:



– kalit so‘zlar



– diqqat bilan o‘qing



– bilib oling



– ijodiy fikrlang



– yodda tuting



– savollarga javob toping

**Respublika maqsadli kitob jang‘armasi mablag‘lari  
 hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-04-138-7

© X. Sultonov, M. Qarshiboyev, 2015  
 © «Ma‘naviyat», 2015

## ***Birinchi bob. VATAN OZODLIGI – OLIY SAODAT***

### **ENG ULUG‘, ENG AZIZ AYYOM**

Assalomu alaykum, aziz o‘quvchi!

Siz yangi o‘quv yilini boshlab, yana qadrdon maktabingiz bag‘riga qaytgan shu kunlarda yurtimizda bayram tantanalari davom etmoqda. 1-sentabr – Mustaqillik kuni ekanini siz albatta yaxshi bilasiz.



**Vatan dunyodagi eng buyuk, eng muqaddas ne‘mat bo‘lgani uchun uning mustaqilligi ham shunchalik qadrlidir.**

Bugun siz foydalanayotgan imkoniyatlar – obod maktab, yorug‘ sinf xonalari, kompyuterlar, axborot-resurs markazlari, sport maydonlari, zamonoviy darslik va o‘quv qurollari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Mustaqillikdan oldin ular haqida hatto tasavvur qilish ham qiyin edi.



**Mustaqillik el-yurtimizni zulm va kishanlardan ozod qildi, uning qonuniy huquqlari, sha‘n-u g‘ururi, tarixi, tili va dini, milliy qadriyatlarini tikladi. Shu bois Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug‘, eng aziz bayramdir.**

Biz o‘zimiz nafas oladigan, hayotimizning eng muhim sharti bo‘lgan toza havo, tinch-osoyishta hayot naqadar bebaho ne‘mat ekani haqida ko‘pincha chuqur o‘ylab ko‘rmaymiz. Vaholanki, ulardan bahramand bo‘lmasdan, yashash mumkin emas.

Siz bugun erkin va ozod, tinch va osoyishta yurtda yashab, zamonaviy bilim maskanlarida ta‘lim-tarbiya olmoqdasiz. Afsuski, dunyoning barcha mamlakatlarida ham bolalar bunday imkoniyatlarga ega emas.

## AFG‘ON QIZINING ARMONI

Fransuz kinoijodkorlari tomonidan suratga olingan «Budda ham uyatdan portlab ketdi» deb nomlangan badiiy filmda jajji bir qizaloqning butun borlig‘i bilan ilm olishga intilishi, lekin Afg‘onistondagi notinch vaziyat, jaholatga berilgan kimsalarning bunga xalaqit berishi haqida hikoya qilinadi. Qizaloq ne-ne azoblar bilan ozgina pul topadi va daftar sotib oladi. Ammo ruchkaga puli yetmaydi. Oyisining pardoz qalamini olib, maktabga otlanadi. Yo‘lda faqat urushni umrining mazmuni deb biladigan yo‘lto‘sar bolalarga duch keladi. Ular qizchani «asir» olib, tiriklayin yerga ko‘mmoqchi bo‘lishadi. Qizcha ularning qo‘lidan qochib, bir maktabga yetib keladi. Afsuski, bu o‘g‘il bolalar maktabi bo‘lib chiqadi. Muallim uni ko‘chaga haydab soladi.

Qizcha endi olis qishloqdagi qizlar maktabiga yo‘l oladi. Ammo boshqa qishloqdan kelgani uchun u yerdan ham quviladi. Shu tariqa ko‘chada qolishdan, o‘zi dastlab duch kelgan qaroqchi bolalarga, ya’ni jaholatga yem bo‘lishdan boshqa iloji qolmaydi.



*Aziz o‘quvchi, mamlakatimizda o‘quvchilarni maktablarning 1-sinfiga qabul qilish haqiqiy bayram sifatida o‘tishi haqida gapirib bering. Bu holatni afg‘on qizi duch kelgan voqealar bilan solishtiring.*

## O‘ZBEKISTON MAKTABLARI



Mamlakatimizda 9700 ta zamonaviy umumta’lim maktabi bor. Ularda 4 million 521 mingdan ortiq bola ta’lim olmoqda. Ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘yadigan 1-sinf o‘quvchilari har yili davlat hisobidan «Alifbe» kitobi va boshqa darsliklar, zarur o‘quv

qurollari bilan bepul ta'minlanadi. Masalan, 2014-yilda 587 mingga yaqin 1-sinf o'quvchisi salkam 28 milliard so'mlik darslik va o'quv anjomlari bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, maktab o'quvchilari uchun 34 million 500 ming nusxadagi darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar yurtimizdagi ta'lim olib boriladigan 7 tilda nashr qilinib, barcha umumta'lim maktablariga yetkazib berildi. Har yili yangi o'quv yilidan oldin mamlakatimizdagi maktablar ta'mirlanib, sentabr oyida o'quvchilar ixtiyoriga topshiriladi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1997-yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 2004-yilda esa Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etildi. Hozirgi vaqtda yurtimizda 12 yillik majburiy bepul ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda yangi yangi maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari bilan birga turli hududlar, jumladan, olis qishloq va tumanlarda 315 ta zamonaviy musiqa va san'at maktabi, 1500 dan ziyod bolalar sporti obyektlari barpo etildi.

Siz yurtimizda har yili 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Zulfiya nomidagi davlat mukofotini tantanali topshirish marosimini albatta ko'rib borsangiz kerak. Ana shu yuksak mukofotga sazovor bo'lgan qizlar mazkur marosimda o'zlarining o'qishda, jamoat ishlarida, badiiy ijodda, san'at va sportda erishgan yutuqlari haqida gapirganlarida muhtasham «Turkiston» saroyi gulduros qarsaklardan bamisoli gum-burlab ketadi.



*Siz nima deb o'ylaysiz, yuqorida zikr etilgan afg'on qizining mamlakatida ham shunday imkoniyatlar bo'lganida bu qizaloq ham shuncha intilishi, turishqoqligi bilan o'qishda, ishda, ilm-fan va madaniyatda katta natijalarga erishishi mumkinmidi?*



Demak, biz mustaqil hayot qadrini chin dildan anglab, uni ko'z qorachig'idek asrashga doimo tayyor bo'lib yashashimiz kerak.



**To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi jasur ajdodlarimizga kuch-qudrat bergan tuyg'u avvalo ona yurt oldidagi muqaddas farzandlik burchi, unga sadoqat tuyg'usi, Vatan ozodligini eng ulug' ne'mat deb bilish hissi edi.**

Bugungi kunda xalqimizning ozod va erkin hayot barpo etish, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallash yo'lidagi ulkan intilish va harakatlarining mustahkam manbai ham ana shunday buyuk tuyg'ulardir.

Aziz o'quvchi, shuni unutmang, dunyoda ko'pgina xato va kamchiliklar, hatto gunohlar kechirilishi mumkin, ammo ota-onaga, yor-u do'stlarga, Vatanga xiyonat aslo kechirilmaydi.



**«Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko‘raman. Ezgulikka va haqiqatga sadoqati bo‘lmagan, ularga ishonmagan odam qo‘rqinchlidir»<sup>1</sup>.**

Vatan tuyg‘usini chin dildan his etish, shu tuyg‘u bilan yashash inson hayotiga ma’no-mazmun bag‘ishlaydi, uni kamolot sari yetaklaydi. Bunday odam hayotning murakkab so‘qmoqlarida adashmaydi, o‘z xalqining mard va fidoyi farzandi bo‘lib voyaga yetadi. Eng muhimi, bunday insondan uning o‘zi ham, el-yurti ham naf ko‘radi, rozi bo‘ladi.



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Mustaqillik kuni sizning shahringiz yoki qishlog‘ingizda qanday nishonlanadi?
2. Mustaqillik haqida qo‘shiq yoki she‘r bilasizmi?
3. Afg‘on qizi nima uchun orzusiga erisholmadi?
4. Yurtimiz yoshlari, jumladan, qizlarimizning o‘qishda, ilm-fan, madaniyat, sport sohalaridagi yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?
5. O‘zingiz qaysi sohaga qiziqasiz?
6. Rasmlarga qarab, mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so‘zlab bering.



1



2



3



4

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 122-bet.

**«O‘zbekiston – yagona Vatan» mavzusidagi amaliy  
mashg‘ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 90-bet.
2. Islom Karimov. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 2011-yil, 3–31-betlar.
3. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2010-yil, 6–12-betlar.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 2000-yil.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti, 1992-yil, 28-bet.





## MUSTAQILLIGIMIZ ABADIY BO‘LSIN!

Aziz o‘quvchi, siz bu so‘zlarni ko‘p eshitgansiz. Yurtimizni, uning shahar va qishloqlarini aylanar ekanmiz, ko‘chalar, maydonlarni bezab turgan shior va lavhalar orasida mazkur iboraga ham ko‘zimiz tushadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘da Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tantanali marosimdagi tabrik so‘zini aynan shu ibora bilan yakunlar ekan, bamisoli butun xalqimiz bu ulug‘ tilakka qo‘shilib, uni tilida va dilida takrorlagandek bo‘ladi.



**Xalqimiz uchun pok tuyg‘u va niyatlar bilan yashash necha ming yillik bezavol qadriyatga aylanib ketgan. Shuning uchun ham hayotimizni ulardan ayri holda tasavvur etolmaymiz.**





Ota-bobolarimiz daraxt eksa, uy qursa: «Ko‘p yillar bolalarimga, bolalarimning bolalariga xizmat qilsin!» – deb yaxshi niyat qiladi. Deyarli har kuni ezgu tilaklarimizga qo‘shib aytadigan «Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo‘lsin», «Yaratganning o‘zi asrasin» degan ezgu maqsadlar bizga yangi kuch-g‘ayrat beradi, ertangi kunga katta umid va ishonch bilan yashashga undaydi. Mustaqillik yillarida bunday oliyjanob tilaklar qatoriga «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart», «O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak» degan iboralar qo‘shilib, xalqimiz o‘rtasida mashhur bo‘lib ketgani bejiz emas. Ularning orasida «Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!» degan ibora chuqur ma‘no-mazmuni bilan alohida o‘rin tutadi.



**Dunyoda shunday ne‘matlar borki, ularning qadr-qimmati, ahamiyati asrlar va hatto abadiyat bilan o‘lchanadi. Yillar, zamonlar o‘tsa ham ular inson, davlat, xalq va jamiyat uchun eng zarur ehtiyoj, oliy ne‘mat bo‘lib qolaveradi.**

Mustaqillik ana shunday buyuk qadriyatdir. Bu so‘zni aytganda, biz ham tariximiz, ham bugungi kunimiz, ham kelajak hayotimizni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazamiz. Ajdodlarimiz aynan mustaqillikni qo‘lga kiritib, o‘z yurti, o‘z davlatiga o‘zi egalik qilgan davrlarda dunyoga dong taratib, mislsiz yutuqlarga erishganlar. Vatanimiz bosqinchilar zulmi ostida qolgan kezlarda esa xalqimiz qanchadan-qancha azob-uqubatlarga duchor bo‘lgan, mustaqillikka erishishni orzu qilib yashagan. Lekin bunday buyuk maqsadga erishish uchun faqat orzuning o‘zi kamlik qiladi. Ozodlik yo‘lidagi ne-ne qiyinchilik va mashaqqatlardan qo‘rqmasdan, mardlik, fidoyilik bilan kurashish talab etiladi.

Eng og‘ir masala ham ana shu — xalqni ozodlik g‘oyasi bilan uyg‘otib, uni bu yo‘lda albatta g‘alaba qozonishga ishontirib, olg‘a boshlashdir. Bunday ulug‘ vazifani ado etishga faqat katta rahbarlik tajribasiga, ulkan tafakkur, mustahkam irodaga ega bo‘lgan insongina qodir bo‘ladi. Prezidentimiz Islom Karimov SSSR deb atalgan, mustaqillikdan oldin hukm surgan sobiq mustabid tuzum zulmi ostida qolib ketgan ona yurtimizni ozod qilish uchun 1989-yil 23-iyunda ana shunday tarixiy vazifani zimmasiga olib, O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshladi. Prezidentimizning o‘sha paytda o‘tkazgan birinchi majlisda aytgan dastlabki so‘zlari **«Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi»**<sup>1</sup> degan so‘zlardir. Bu so‘zlar zamirida umrini o‘tab bo‘lgan eski tuzumdan voz kechib, albatta, mustaqillikka erishamiz, yangi hayot, yangi jamiyat quramiz, degan ulug‘ maqsad mujassam edi. Bu shunchaki orzu, shunchaki havas emas, ulkan amaliy ishlar, jiddiy harakatlarning boshlanishi ekanini keyingi voqealar yaqqol ko‘rsatdi. Siz davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini o‘qib chiqsangiz, bunga to‘la ishonch hosil qilasiz.

Ana shu tarixiy bayonotdan boshlangan o‘zgarishlar 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishganimizdan keyin yanada keng tus oldi. Bugungi kunda esa bu yo‘ldagi harakatlar mutlaqo yangi bir sharoitda davom ettirilmoqda. Bunday islohot va yangilanishlarning barchasi nafaqat bugungi va ertangi kunimizga, balki abadiyatga daxldor ishlar ekani e‘tiborlidir.

## XALQIMIZNING ISHONCHI VA TAYANCHI

Yurtimizda 31 milliondan ziyod aholi istiqomat qiladi. Buning teng yarmini yoshlar tashkil etadi. Mamlakatimizda turli qazilma boyliklar, dunyo bozorida talab katta bo‘lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari ko‘p. Yerimiz unum-

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. —T.: «O‘zbekiston», 2011-yil, 32-bet.

dor, tabiatimiz qulay. Oddiy choʻpni qadasangiz ham gurkirab oʻsib rivojlanadi. Lekin ana shu boyliklarning barchasini yurtimiz ravnaqi yoʻlida ishlatadigan kuch mehnatkash, mard va bagʻrikeng xalqimiz, shu xalqning ishonchi va tayanchi boʻlib voyaga yetayotgan yoshlarimizdir. Aynan shuning uchun ham mamlakatimizda har bir bolaning sogʻligʻi, uning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasdan oʻsib-ulgʻayishi, zamonaviy bilimlar, kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallashi, hayotdan oʻz oʻrnini topishi uchun qanday sharoit kerak boʻlsa, barchasi yaratib berilmoqda.

Bir paytlar Amir Temur bobomiz: «Kim bizning qudratimizga shubha qilsa, qurgan imoratlarimizga boqsin», – deb katta ishonch, gʻurur-iftixor bilan oʻz ishining abadiyatga daxldor ekanini taʼkidlagan edi. Sohibqiron bobomizning nabirasi, buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulugʻbek esa ilm-fan sohasidagi kashfiyotlari hech qachon yoʻq boʻlib ketmasligini nazarda tutib: «Oʻz ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim», – deb aytgan. Mumtoz mutafakkir shoirimiz



**Samarqand. Shohizinda majmuasi**

Alisher Navoiy, go‘yo ana shu haqiqatni tasdiqlagandek, Mirzo Ulug‘bek haqida: «Qiyomatg‘a deguncha ahli ayyom, Yoazarlar aning ahkomidin ahkom», – ya‘ni, bu dunyo olimlari Yer yuzida toki hayot bor ekan, Ulug‘bekning kashfiyotlari asosida yangi-yangi xulosalar, hukmlar chiqarib, bu kashfiyotlarni davom ettiradilar, deb qayd etgani bejiz emas, albatta.

Buni qarangi, bu so‘zlar 2014-yil 14–15-may kunlari Samarqand shahrida o‘z tasdig‘ini topdi. Dunyoning 40 dan ziyod davlatlaridan kelgan eng mashhur olimlar bu shaharda «O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyaga to‘plandilar. Ular boshqa buyuk allomalarimiz qatori Mirzo Ulug‘bek merosi haqida ham yaxshi fikrlar bildirdilar, ya‘ni, bu buyuk mutafakkirning ahkomidan ahkomlar yaratganlarini bayon qildilar.

Prezidentimiz yurtimiz yoshlarining turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini butun xalqimiz, O‘zbekistonimizning yutug‘i deb biladi. Demak, Vatanimiz istiqlolini asrab-avaylash va mustahkamlash, O‘zbekistonimiz shuhratini jahonga yoyish vazifasi kelajakda aynan sizdek yoshlarga bog‘liq.

Muxtasar qilib aytganda, «Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!» degan so‘zlarning negizida chuqur ma‘no mujassam.

Haqiqatan ham, biz abadiyatga daxldor ishlari bilan dunyoga tanilgan xalqimiz. Qadimiy shaharlarimizdagi tarixiy obidalarimiz, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi, istiqlol davrida barpo etgan ko‘plab inshootlarimiz, bugungi kunda xalqimiz, jumladan, yoshlarimiz erishayotgan ulkan yutuqlar aynan shundan dalolat beradi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Siz Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimni televizor orqali ko‘rganmisiz?
2. Bu marosim sizda qanday taassurot qoldirdi?
3. Siz bir ishni boshlashdan oldin qanday niyat qilasiz?
4. Buyuk allomalarimizning nomlari nima uchun ming yillardan buyon bezavol yashab kelmoqda?



5. Rasmlarga qarab, xalqimizning abadiyatga daxldor ishlari haqida gapirib bering.



1



2



3



4

### **«Vatanning bebaho ne'matlari» mavzusidagi amaliy mashg'ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 7–8-betlar.

2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2010-yil, 6–12-betlar.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 51–52-betlar.

4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1992-yil, 28-bet.

5. Vatan va millat muqaddasdir. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2000-yil, 8–18-betlar.



## VATANIMIZ POYTAXTI

Aziz o‘quvchi, Vatanimiz, uning go‘zal va obod qiyofasi, ulkan salohiyati haqida so‘z borganda, avvalo azim poytaxtimiz Toshkent shahri ko‘z oldimizga keladi. Chunki, Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, biz Toshkent timsolida O‘zbekistonni, O‘zbekiston timsolida esa Toshkentni sevamiz, qadrlaymiz.



**Toshkent – nafaqat mamlakatimiz, balki O‘rta Osiyo mintaqasining eng yirik ma‘muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. U Vatanimizning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan tog‘ tizmalarining g‘arbiy etagida, Chirchiq vodiysida joylashgan. Shahar 335 kvadrat kilometrga yaqin maydonni egallagan bo‘lib, bu yerda qariyb ikki yarim million aholi istiqomat qiladi.**

Shahar 11 ta tumanga – Bektemir, Mirzo Ulug‘bek, Mirobod, Olmazor, Sergeli, Uchtepa, Chilonzor, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Yashnobod tumanlariga bo‘lingan.



**Qadimda shahar Choch, Shosh, Binkat degan nomlar bilan atalgan. Shahar hududida Shoshtepa, Mingo‘rik, Chilonzor Oqtepesi, Yunusobod Oqtepesi singari ko‘hna shahar qoldiqlari saqlanib qolgan.**

Toshkent 1930-yildan buyon O‘zbekiston poytaxti hisoblanadi.

Qadimda Toshkent shahrining 12 ta darvozasi bo‘lgan. Bular – Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Samarqand, Kamolon, Beshog‘och, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar darvozalidir.



## SHARQ DARVOZASI

Bugungi kunda Toshkentning o‘zi ulkan darvoza hisoblanadi. Chunki dunyoning g‘arbiy o‘lkalaridan Sharq mamlakatlariga, Sharqdan esa G‘arbga boradigan samolyotlar, avtomobil karvonlari Toshkent orqali o‘tadi. Shuning uchun u tom ma’noda Sharq darvozasiga aylanib bormoqda.

Toshkentning yana bir muhim xususiyati – bu yerda irrigatsiya tarmoqlari – ariq va kanallarning ko‘pligidir. Chirchiq daryosining o‘ng sohilidagi magistral kanal – Bo‘zsuv Toshkent shahri hududida Anhor, Bo‘rijar, Salor, Qorasuv, Kaykovus kabi tarmoqlarga bo‘linib, mahalla va mavzelar bo‘ylab kichik ariqchalar shaklida tarqalib ketadi. Biron-bir ko‘cha yoki guzar yo‘qki, undan suv to‘la ariqchalar oqib o‘tmasa.



**«Toshkentning mayin havosi, go‘zal tabiati, qut-baraka yog‘iladigan fusunkor bog‘lari, zilol va shifobaxsh suvlari haqida qanday go‘zal ta’riflar bitilmagan. Xususan, XVI asrda yashab**



*o'tgan tarixchi alloma Zayniddin Vosifiy Toshkentni ulug'lab, bu diyorni bir bor ko'rgan odam bamisoli jannat bog'larini ke-z-gandek bo'ladi, deb yozganida ayni haqiqatni ifoda etgan edi»<sup>1</sup>.*

Qadimiy Toshkentning ko'cha va mahallalari, guzarlari Temirchi, Mis-karlik, Degrezlik (qozon yasovchilar), O'qchi, Egarchi, Taqachi, Mahsi-do'zlik, Ko'nchilik, Parchabof degan nomlar bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa, kamonchilar yasagan o'q-yoylar «kamoni Shoshiy» degan nom bilan yetti iqlimga tanilgan.

Toshkent azaldan ilm-ma'rifat shah-ri, buyuk allomalar, aziz-avliyolar yurti bo'lib kelgan. Bu zamindan Qaffol Shoshiy, Shayx Xovandi Tohur, Xo'ja Ahror Valiy, Hofiz Ko'ykiy, Shayx Zayniddin bobo, Ibrohim ota va Qo'y-liq ota kabi aziz-avliyolar, «Shoshiy», «Toshkandiy» taxalluslari bilan ko'plab olimlar, shoir va mutafakkirlar yetishib chiqqan.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari sifatida maydonga chiq-qan tarixiy harakat ham avvalo Toshkentdan boshlanib, butun yur-timizga keng tarqalgan edi. Bu harakatning Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi atoqli vakillari aynan qadimiy Shosh farzandlaridir.

Istiqlol davrida Toshkent tom ma'noda poytaxt shaharga, jahon miqyosida tan olingan megapolis, ya'ni yirik shaharga aylandi. Mam-lakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ulkan tarixiy o'zgarishlar Toshkentdan boshlanmoqda.



**Ko'kaldosh madrasasi**

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Tarixi boy, buguni go'zal, kelajagi buyuk shahar. —T.: «O'zbekiston», 2009-yil, 5–6-betlar.

Vatanimiz mustaqilligining e'lon qilinishi, O'zbekiston Konstitutsiyasi va mamlakatimiz taraqqiyotiga oid ko'plab qonun va qarorlar aynan shu yerda qabul qilingani Toshkentni yangi tariximizning ajralmas qismi bo'lgan, barchamiz faxrlanib, g'ururlanib yashaydigan shaharga aylantirdi.

Poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senat, Vazirlar Mahkamasi singari davlatimizning oliy hokimiyat organlari, markaziy vazirlik va idoralar, siyosiy partiyalar, fuqarolik tashkilotlari, xorijiy davlatlarning elchixonalari, nufuzli xalqaro tuzilmalarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatadi.

Toshkent – yoshlar shahri. Bu yerda sizdek o'g'il-qizlarning bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarini o'rganishi, sport, badiiy ijod bilan shug'ullanishi, madaniy dam olishi uchun barcha qulayliklar mavjud. Ko'plab maktablar, litsey va kollejlari, oliy o'quv yurtlari, stadionlar, teatr va muzeylar, istirohat bog'lari, ilm-fan, madaniyat muassasalari, yoshlar markazlari aynan ana shu maqsadga xizmat qiladi.



**O'zbekiston davlat konservatoriyasi**

Mustaqillik yillarida Toshkentning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketdi. Shaharning Mustaqillik maydoni va markaziy qismida, Eski shahar hududida keng ko‘lamdagi qurilish-obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Toshkentning zamonaviy qiyofasida har qanday odamni ham o‘ziga maftun etadigan fusunkor bog‘-u rog‘lar, so‘lim xiyobonlar, yam-yashil hududlar alohida o‘rin tutadi. Faqat keyingi 10 yilda poytaxtimizda ilgari temir-beton va asfalt bilan qoplangan maydonlar o‘rnida 3 ming 30 gektardan ziyod ko‘kalamzor hududlar barpo etildi.



**2009-yili Toshkent shahrining 2200 yilligi nishonlandi va u «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlandi.**

Toshkent hozirgi paytda O‘zbekiston poytaxti degan yuksak maqomga har tomonlama munosib, dunyo ahlining e‘tibor va e‘tirofiga sazovor bo‘lgan, jahondagi eng buyuk shaharlar bilan bo‘ylashayotgan, tobora o‘sib, rivojlanib borayotgan buyuk shaharga aylangani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Sizning shahringiz yoki tumaningizda keyingi paytda qanday o‘zgarishlar bo‘lmoqda?
2. Ota-onangiz yoki yaqinlaringizning Toshkent shahri haqidagi fikrlarini eshitganmisiz?
3. O‘zingiz Toshkent shahrida bo‘lganmisiz?
4. Toshkent qadimda qanday nomlar bilan atalgan?
5. Rasmlarga qarab, Toshkent yoshlar shahri ekani haqida gapirib bering.



1



2



3



4

**«Toshkentga sayohat» mavzusidagi amaliy  
mashgʻulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Tarixi boy, buguni goʻzal, kelajagi buyuk shahar. Toshkent, «Oʻzbekiston», 2009-yil, 34-bet.
2. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Maʼnaviyat», 2013-yil, 155-bet.
3. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 6-jild. Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil, 159–160-betlar.
4. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2009-yil, 373–377-betlar.
5. Sirojiddin Sayyid. Yashasin yomgʻirlar. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2007-yil, 10–15-betlar.



## O‘ZBEKISTON MILLIY BOG‘I

Aziz o‘quvchi, poytaxtimiz Toshkent shahrining markazida xalqimizning iftixori bo‘lgan, ko‘pchilik borib ko‘rishni, sayr etishni orzu qiladigan qutlug‘ maskan bor. Bu – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy bog‘idir. U mamlakatimizdagi eng yirik madaniyat va istirohat bog‘i hisoblanadi. Uni qisqagina qilib, Milliy bog‘ deb ham ataymiz.



**Milliy bog‘ Toshkent shahrining markaziy qismida joylashgan bolib, 69 gektar maydonni egallaydi.**

Bog‘ 1991-yili Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan. Aynan o‘sha yili bu yerdagi baland tepalikka Alisher Navoiyning 550 yilligi sharafiga shoirning muazzam haykali o‘rnatilgan edi.

Bog‘ning o‘rtasidagi hududda o‘ziga xos me‘moriy majmua barpo etilgan. Majmua markazida favvorali aylana hovuz va amfiteatr shaklidagi tantanali marosimlar o‘tadigan maydon bor.

Amfiteatrning g‘arb tarafida Oliy Majlis binosi va Abulqosim madrasasi, sharq tomonida esa «Navro‘z» restorani joylashgan.

Alisher Navoiy haykalining old tarafidagi xiyobon oralab kanal oqib o‘tadi. Unga charxpalak o‘rnatilgan. Bu xiyobonga 2007-yili atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning, 2010-yili Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning, 2013-yilda esa O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad va taniqli shoira Saida Zunnunovaning haykallari o‘rnatilgan.

Bu yerdagi amfiteatrda har yili Navro‘z va Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tantanali marosimlarni el-yurtimiz, chet ellik





mehmonlar katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Ushbu marosimlarda Prezidentimiz Islom Karimov ishtirok etib, xalqimizni ana shu buyuk ayyomlar bilan tabriklaydi.

Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboni ham go‘zal maskanlardan biridir. O‘zbekiston Milliy bog‘i shaharning janubi-g‘arb tomonida joylashgan bo‘lsa, Amir Temur xiyoboni sharq tomonidadir.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Prezidentimizning tashabbusi bilan bu maskanga Amir Temur xiyoboni deb nom berildi. 1993-yilda esa xiyobonning o‘rtasiga Sohibqiron Amir Temur bobomizning muhtasham haykali o‘rnatildi. Bu haykal loyihasining muallifi ham Yurtboshimizdir. Bu haqda «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» kitobida siz va biz uchun ibratli so‘zlar bitilgan:



***«Haykaltaroshlar taqdim etgan variantda Sohibqiron qoliga nayza tutgan holda tasvirlangan edi. Men bunga e‘tiroz bildirib, Sohibqiron bobomiz qo‘lida nayza emas, otning jilovini tutib***

*turgani ma'qul, – degan fikrni bildirdim. – Buning ramziy ma'nosi bor. Chunki, saltanatda nayza ko'targan odamlar ko'p bo'lgan, ammo jilov Amir Temurning qo'lida bo'lgan. Bu mustahkam davlat tizimini qo'lda mahkam tutib turishni ang-latadi»<sup>1</sup>.*

Hozirgi kunda bizga yaxshi ta-nish bo'lgan Amir Temur haykali aynan shunday ko'rinishda yara-tilgan.

Xiyobonning shimol tarafida 1996-yili Amir Temurning 660 yillik tavallud to'yi munosabati bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Bu muzeyga kirsangiz, Amir Temur bobomizning mohir lashkarboshi, qudratli davlat bosh-lig'i bo'lganini isbotlaydigan ko'p-gina osori atiqalarni ko'rasiz.

2009-yilda Amir Temur xiyoboni butunlay qaytadan bunyod etildi. Bu yerga ko'zni quvontiradi-gan yam-yashil archalar, qarag'ay va kashtan daraxtlari ekildi. Xiyobonning sharq tarafida oppoq rangdagi ulug'vor «O'zbekiston» anju-manlar saroyi hamda Toshkent qadimiy kurantiga uyg'un ravishda yangi kurant barpo etildi. Bu muhtasham obidalar Toshkent shahrining 2200 yillik to'yiga munosib sovg'a bo'ldi. Poytaxtimizning ana shu tarixiy sanasiga bag'ishlangan tantanali marosim ham aynan «O'z-bekiston» anjumanlar saroyida bo'lib o'tdi.



<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 152-bet.



«O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyi

Prezidentimizning loyihasi va rahbarligi asosida barpo etilgan bu obida nafaqat Amir Temur xiyoboni, balki butun poytaxtimiz chiroyini yanada o‘zgartirib yubordi.



***Savol va topshiriqlar:***

1. Sizing shahringiz yoki tumaningizda ham istirohat bog‘i bormi?
2. U yerda qanday tadbirlar o‘tkaziladi?
3. Siz Milliy bog‘da bo‘lganmisiz?
4. Amir Temur xiyobonida-chi?
5. Ushbu rasmlar orasidan «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyini toping.





**«Vatan va xalq mangu qoladi» mavzusidagi amaliy  
mashg'ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 7–11-betlar.
2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 6–24-betlar.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil, 55–56-betlar.
4. Vatan va millat muqaddasdir. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2000-yil, 8–18-betlar.



## BUYUK QADAMJOLAR

Aziz o‘quvchi, bilim va fazilatda benazir insonlarning qadami tekkan yoki ular mangu orom topgan, odamlar aziz va muqaddas deb biladigan joylarni qutlug‘ qadamjolar deymiz. Har qarich tuprog‘i tabarruk bo‘lgan yurtimizda bunday maskanlar ko‘p. Poytaxtimiz Toshkent shahrining Olmazor tumanida joylashgan Hazrati Imom majmuasi shular jumlasidandir.



**Hazrati Imom majmuasi Prezidentimiz Islom Karimov ta-shabbusi va rahbarligida 2007-yili yangidan bunyod etildi.**

Agar siz Toshkentning Eski shahar qismiga qarab borsangiz, uzoq-uzoqlardan salobatli va baland qo‘sh minoraga ko‘zingiz tushadi. Ular ana shu majmua tarkibidagi Hazrati Imom jome masjidining minoralaridir.



**Hazrati Imom majmuasi**

Quruvchilarning aytishicha, masjid minoralarining balandligi 52 metr ekan. Shunisi e'tiborliki, masjidning o'ng tarafidagi minora xorazmlik Ibrohim va Erkin usta boshchiligida 26 kunda, uning chap tomonidagi minora esa samarqandlik Sharif usta rahbarligida 28 kunda qurib bitkazilgan.

Ushbu masjidning shimoli-g'arb tarafida Mo'yi muborak madrasasi joylashgan. Tarixiy kitoblarda yozilishicha, bu madrasa ilk bor XV asrda qurilib, keyinchalik buzilib ketgan, 1856–1857-yillarda qayta tiklangan ekan. 2007-yili madrasa to'liq ta'mirlanib, yangicha qiyofaga ega bo'ldi. Hozirgi kunda bu yerda muqaddas Qur'on kitobining eng qadimiy asl nusxasi saqlanadi.

Hazrati Imom majmuasida yana Tilla Shayx jome masjidi, Baroqxon madrasasi, Qaffol Shoshiy maqbarasi, Namozgoh masjidi kabi tarixiy yodgorliklar bo'lib, ular ham tubdan ta'mirlangan.

Toshkent shahridagi buyuk qadamjolar haqida gapirganda, 1999-yili barpo etilgan Xotira maydonini tilga olish o'rinni bo'ladi. Xotira maydonidagi bir-biriga qaratib qurilgan naqshinkor ustunli ayvonlardagi sahifalarga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan 450 ming nafar yurtdoshimizning ismi sharifi zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan. Bu yerdan tun-u kun ziyoratchilarning qadami arimaydi. Har bir ziyoratchi avvalo bu yerdagi Motamsaro ona haykali qoshiga borib, ushbu ulug'zotga ta'zim bajo keltiradi. Keyin ayvonlar sahni bo'ylab yurib, o'z vilo-yati uchun ajratilgan sahifalar oldida to'xtaydi. O'sha mash'um urushda halok bo'lgan jigarbandlarining ismi sharifini ana shu sahifalardan topib,



**Motamsaro ona haykali**



ularni eslaydi. Dunyoda tinchlikdek buyuk ne'mat yo'q ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi.

Xotira maydonida o'tkaziladigan tadbirlar haqida siz 5-sinfdagi amaliy mashg'ulotdan yaxshi bilasiz.

Har yili 9-may — Xotira va qadrlash kuni mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov bu yerga maxsus tashrif buyurib, Motamsaro ona haykali poyiga gul qo'yadi, fashizmga qarshi urushda halok bo'lgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltiradi. Shu bilan birga, bu yerga ziyoratga kelgan urush va mehnat faxriylari, yoshlar vakillari bilan uchrashib, samimiy suhbatlashadi.

### **SAMARQANDDAGI ENG QADIMIY MASJID**

Tarixiy manbalarga ko'ra, Hazrati Xizr masjidi qadimiy Samarqand zaminida qurilgan birinchi masjid ekan. Ko'p yillar davomida qarovsiz qolib ketgani uchun ancha nurab, to'kilib qolgan bu ko'hna va noyob yodgorlik davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan tubdan qayta ta'mirlanib, obod etildi.

Ish jarayonida mutaxassislar masjidning ba'zi bir eski ustunlarini almashtirishni taklif etdilar. Yurtboshimiz bu masalaga katta qiziqish bilan qarab, ana shu ustunlarni maxsus o'rganib chiqadi. So'ngra ustunlarning naqsh va bezaklari milliy hunarmandchilik an'analarimizga mos emasligiga, ko'proq Tunis yoki Marokash davlatlarida shakllangan uslubni eslatishiga e'tibor qaratib, ularni yangidan ishlash haqida topshiriq beradi. Shu tariqa qo'qonlik ustalar masjidning ustunlarini milliy me'morlik an'analarimiz uslubida ishlab, yangidan joyiga o'rnatdilar. Bu esa ushbu qadimiy majmuaga alohida ko'rk va salobat bag'ishladi.



**Hazrati Xizr masjidi**

Mamlakatimizda Termiz shahridagi Hakim Termiziy, Buxoro zaminidagi Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband, Samarqanddagi Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Marg'ilondagi Burhoniddin Marg'inoniy yodgorlik majmualari kabi ko'plab buyuk qadamjolar bor. Ular yurtimizning turli shahar va qishloqlaridan, chet ellardan tashrif buyuradigan insonlar uchun qutlug' ziyoratgoh hisoblanadi. Yurtboshimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida bu tabarruk maskanlar haqida alohida to'xtalib, quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi:



**Burhoniddin Marg'inoniy xotira yodgorligi**





**«Xalqimiz hayotida chuqur iz qoldirgan, bugungi kunda tom ma'noda muqaddas ziyoratgohlarga aylangan bunday majmualar ma'naviy olamimizni yuksaltirishga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi»<sup>1</sup>.**

Haqiqatan ham, bu qadamjolar diyorimiz zamini, ajdodlarimizning xotirasi naqadar muqaddas ekanidan dalolat berib, bizni bu yurtni sevib-ardoqlab yashashga, ulug' bobokalonlarimiz an'analariga munosib bo'lishga da'vat etadi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qanday joylarni qutlug' qadamjolar deymiz?
2. Sizing shahringiz yoki viloyatingizda ham shunday maskanlar bormi?
3. Ushbu rasmlarning qaysi birida Xotira maydoni tasvirlangan?



1



2



3



4

4. Ushbu rasmlarning qaysi birida Hazrati Xizr masjidi aks etgan?



1



2



3



4

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 156-bet.

**«Biz – buyuk tarix egasimiz» mavzusidagi amaliy  
mashg‘ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 97–101-betlar.
2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 84–90-betlar.
3. Islom Karimov. Bizning ezgu maqsadimiz – taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirishdan iborat. Toshkent, «O‘zbekiston», 2010-yil, 3–12-betlar.
4. Vatan va millat muqaddasdir. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2000-yil, 4–10-betlar.



## TARIXIY XOTIRA

Aziz o‘quvchi, tarix – kelajak ko‘zgusi, degan iborani eshitgan bo‘lsangiz kerak. Buning ma‘nosi shuki, tarix insonning ko‘zini ochadi, o‘tmishdan saboq chiqarib yashashga da‘vat etadi.



**Tarixiy xotira o‘zining kimligi, nasl-nasabi, olis va yaqin tarixini doimo yodda tutib yashash tuyg‘usi, qobiliyatidir.**

**Tarixiy xotirasi bor odam kuchli odam.**

**Tarixiy xotirasini yo‘qotgan inson o‘zligini, xalqini, Vatani, erkinligini ham yo‘qotadi va manqurtga aylanadi.**



*«Manqurt» qadimiy so‘z bo‘lib, tarixiy xotirasini yo‘qotgan, ota-bobosini, o‘zining kimligini esdan chiqargan kimsani anglatadi.*

Sobiq mustabid tuzum davrida xalqimizning tarixi soxtalashtirilib, bizni yolg‘on va bo‘hton gaplarga ishontirishga harakat qilishar edi. Jasur va ma‘rifatparvar ajdodlarimiz, har qancha tazyiq va ta‘qiblarga qaramasdan, xalqimizning haqiqiy tarixini o‘rganishga harakat qilar edilar. Aynan ana shunday intilish tufayli ota-bobolarimiz qalbida istiqloлга erishish orzusi eng buyuk orzu bo‘lib keldi.

Prezidentimiz Islom Karimov tarixning ana shunday achchiq tajribalaridan kelib chiqqan holda, bizni, bugungi avlodlarni bunday fojialardan ogoh etadi.



**«Dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning**



***boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni, eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi***<sup>1</sup>.

Haqiqatan ham, bugungi kunda yon-atrofimizga, dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunday ogohlantirishlar bejiz emasligini chin yurakdan his etamiz. Ya'ni, bir paytlar mustamlakachilar xalqimizni tarixiy xotirasidan judo qilishga uringanidek, hozirgi vaqtda terrorism, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, axloqsizlik, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida kirib kelayotgan illatlar ham aynan shunday yovuz maqsadni ko'zlamozda.

Tarixiy xotirasini yo'qotgan xalq bamisoli ildizi kesilgan daraxtdek tezda qurib bitadi. U dunyodagi kurash va musobaqalarga dosh berolmaydi.



**Tarixiy xotira har daqiqada insonning kimligi, qanday buyuk xalqqa mansubligi, kimlarning avlodi ekanini eslatib turadi. Insonni, xalqni o'z sha'ni va g'ururi, or-nomusini asrab yashashga qodir bo'lishga undaydi.**

Tarixiy xotira tuyg'usi dunyodagi barcha xalqlarga xos. Ular aynan shu tuyg'u tufayli ajdodlarining ruhini, ularning an'ana va qadriyatlarini his qilib yashaydi. Uzoq Yaponiyadan kelib, Surxondaryodagi ko'hna Dalvarzintepa va Qoratepada arxeologik qazuv ishlarini olib borayotgan Kyudzo Kato misolida bu fikrning tasdig'ini ko'rish mumkin. Yoshi 80 dan oshgan bu keksa olimni o'z uyi, yaqinlarini tashlab yurtimizga kelishga, uzoq yillar davomida loy, tuproq kechib, jazirama issiq, qahraton sovuq demasdan, qadimiy tepalar bag'rini qadambaqadam kovlab, ilmiy izlanishlar olib borishga majbur etgan narsa nima? Tarixiy xotira tuyg'usi.

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 11-bet.



**Afrosiyob tepaligidan topilgan  
qadimiy devoriy rasm**

Qadimiy Kushonlar davlati paytida Surxon zaminida buddaviylik dini gullab-yashnagan. Buddaviylik esa Yaponiyada ajdodlarning koʻhna taʼlimoti sifatida qadrlanadi. Kato domla ana shu taʼlimotga doir moddiy yodgorliklarni topib, oʻz ajdodlarining tarixiy xotirasidagi uzilib qolgan rishtalarni tiklamoqchi. Bu — haqiqiy fidoyilikdir. Bu ilm jonkuyari xalqimizning boy tarixi, qadimiy yodgorliklari hamda madaniy merosini chuqur oʻrganish va xorijiy ellarda targʻib qilishdagi katta xizmatlari,

Oʻzbekiston va Yaponiya oʻrtasidagi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga qoʻshgan samarali hissasi uchun mamlakatimiz Prezidentining farmo-niga binoan «Doʻstlik» ordeni bilan mukofotlandi.

Yana bir misol. Yurtimizdan turli sabablar bilan chetga olib ketilgan betakror milliy madaniyatimiz namunalari koʻp. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Yurtboshimiz tomonidan ularni mamlakatimizga qaytarib olib kelish masalasi qatʼiy vazifa qilib qoʻyildi. Shu maqsadda Oliy Majlis huzurida maxsus komissiya tuzildi. Ushbu komissiya aʼzolari dunyoning eng yirik madaniy markazlari — London, Parij, Berlin, Moskva, Sankt-Peterburg, Nyu-York, Dehli, Tehron, Qohira va boshqa qator shaharlarda milliy merosimizning minglab noyob namunalari saqlanayotganini aniqlashdi va ularning katta qismi mamlakatimizga qaytarib olib kelindi. Endilikda ular xalqimizning tarixiy xotirasini mustahkamlash, oʻzligimizni chuqur anglashga xizmat qilmoqda.

Istiqlolga erishganimizdan soʻng biz tariximizni haqqoniy va xolis oʻrganish imkoniyatiga ega boʻldik. Endi biz ota-bobolarimiz kim boʻlganini, ularning dunyo taraqqiyotiga qanday hissa qoʻshganini aniq tasavvur qila olamiz. Bu bizning tarixiy xotirasiga ega, erkin va ozod xalq boʻlib yashayotganimizdan dalolatdir.



**Buxoro. Minorai Kalon**



**Buyuk tarixni bilish, xuddi dengiz bag‘ridan javohirlar tergan kabi, uning qa‘ridan asl haqiqatlarni izlab topish ham bizdan katta kuch-g‘ayrat va shijoat talab qiladi.**

Qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, bu ishga mardona bel bog‘lashimiz, tarixiy xotiramizni boyitib, mustahkamlab borishimiz lozim. Chunki tarixiy xotirasi kuchli bo‘lgan xalq kelajak yo‘lida adashmaydi, hech kimga qaram bo‘lmaydi.



**«O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q»<sup>1</sup>.**

Tarixiy xotira yordamida biz ajdodlarimiz bilan g‘oyibona ko‘rishib, suhbat qurib, dunyoning qanchadan-qancha sirlaridan boxabar bo‘lishga, buyuk xalq, muqaddas Vatanning farzandi ekanimizdan faxrlanib, boshimizni baland ko‘tarib yashashga ne yetsin!

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 4-bet.

**?** *Savol va topshiriqlar:*

1. «Tarix — kelajak ko‘zgusi» degan iborani sharhlab bering.
2. Nima uchun tarixi buyuk bo‘lgan xalqning kelajagi ham buyuk bo‘ladi, deymiz?
3. Xalqimiz tarixining buyuk va qadimiy ekani nimalarda yaqqol ko‘rinadi?
4. Tarixiy xotira deganda nimani tushunasiz?
5. Istiqlol tarixni o‘rganish borasida qanday imkoniyatlar berdi?
6. Tarixiy xotirasi kuchli xalqni yengib bo‘ladimi?
7. Ushbu rasmlar orasida tarixiy xotiramizni uyg‘otishga xizmat qiladiganlari qaysilar?



**«Ajdodlar xotirasiga ehtirom» mavzusidagi amaliy mashg‘ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 41–48-betlar.
2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 84–86-betlar.
3. Muqaddas dinimizga yuksak e’tibor va ehtirom. Toshkent, Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2010-yil, 10–15-betlar.
4. Usmonxon Alimov. Hazrati Imom (Hastimom). Toshkent, «Movarounnahr» nashriyoti, 2008-yil, 28–32-betlar.
5. Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa... Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010-yil, 12–18-betlar.

## QADIMIY REGISTON

Aziz o‘quvchi, yurtimizda har biri butun bir tarix va madaniyat timsoli bo‘lgan qadimiy shaharlar ko‘p. Bu shaharlardagi betakror tarixiy obidalar bizning bebaho boyligimizdir. Ularning orasida Registon maydoni alohida o‘rin tutadi.



*«Registon» so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, mayda tosh to‘shalgan joy degan ma‘noni bildiradi.*



**Registon qadimda odamlar to‘planadigan, hukmdorlarning saroyiga yaqin yerda joylashgan markaziy maydon hisoblangan.**

Registon maydoni Buxoro shahrida ham mavjud. Qadimda esa Shahrisabz, Nasaf, Toshkent shaharlarida ham shunday maydonlar bo‘lgan. Ulardan eng mashhuri va to‘liq saqlanib qolgani Samarqand shahridagi Registon majmuasidir.



**Registon shaharning o‘rtasida joylashgani va ko‘plab tarixiy voqealar aynan shu maydon bilan bog‘liq bo‘lgani uchun u Samarqandning yuragi deb ham ataladi.**

Registon maydonida uchta buyuk obida qad rostlagan. Ulardan eng qadimiysi Mirzo Ulug‘bek madrasasidir. U maydonning g‘arb tarafida joylashgan bo‘lib, yuksak peshtoqi sharq tarafga qaragan.



**Ulug‘bek madrasasi 1417—1420-yillarda Mirzo Ulug‘bek tomonidan barpo ettirilgani uchun buyuk ajdodimizning nomi bilan ataladi.**





### Samarqand. Registon maydoni

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr hukmdori bo‘lgan zamonlarda bu madrasa o‘ziga xos akademiya sifatida shuhrat qozongan.



*«Movarounnahr» – arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, daryo ortidagi o‘lka degan ma‘noni, Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi hududni bildiradi.*

Musulmon dunyosidagi ulug‘ allomalar, shoirlar, diniy ulamolar bu madrasaga kelib dars bergan, ilmiy, ijodiy ish bilan shug‘ullangan. Mirzo Ulug‘bek bilan birga Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi singari olimlar bu yerda talabalarga tahsil berganlar. Keyinchalik buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy ham Samarqandga kelib, mazkur madrasada ta‘lim olgan.

Mirzo Ulug‘bek madrasasi qurilganidan so‘ng oradan ikki asrdan ziyod vaqt o‘tib, 1619—1636-yillarda Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodirxon dastlab Sherdor madrasasini bunyod ettiradi. Bu obida Registon maydonining sharq tarafiga qurilgan bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek madrasasining qarshisida joylashgan.



**Madrasa peshtoqiga kiyikni quvlab borayotgan sher tasviri tushirilgani uchun u Sherdor madrasasi deb nom olgan.**

Maydonning shimol tarafida Yalangto‘sh Bahodirxon 1646–1660-yillari yana bir muazzam obida – Tillakori madrasa-masjidini barpo ettiradi.



**Bu binoning ichki va tashqi bezaklari tilla suvi bilan ishlangani uchun u Tillakori deb nom olgan.**

Registon maydoniga qadam qo‘ysangiz, bu uchta noyob obida bir-biriga nihoyatda uyg‘un ekanini his qilasiz, ularning go‘zalligidan hayratga tushasiz.

Mustaqillik yillarida ushbu maydon va uning yon-atrofida katta qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida bu maskan yanada chiroy ochdi.

Registon qadim zamonlardan buyon ommaviy sayillar, ilmiy-ma‘rifiy anjumanlar o‘tadigan buyuk madaniy markaz bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda bu an‘analar davom etmoqda. Ayniqsa, 1997-yildan buyon Registon maydonida o‘tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali butun dunyo musiqa san‘ati namoyandalarining nufuzli anjumaniga aylanib bormoqda.

Samarqand shahrida Registon-dan tashqari Shohizinda yodgorlik majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Imom Moturidiy majmuasi, Afrosiyob tepaligi kabi ko‘plab tarixiy maskanlar mavjud.



## INSON O‘Z UMRI DAVOMIDA ALBATTA BORIB KO‘RISHI ZARUR BO‘LGAN SHAHAR



«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali

Aziz o‘quvchi, siz qadimiy Samarqand haqidagi «Yer yuzining sayqali», «Rimning tengdoshi», «sharif shahar» degan ta’riflarni eshitgan bo‘lsangiz kerak. Istiqlol davrida ularning yoniga yangi ta’riflar qo‘shilmoqda. Masalan, 2014-yil, 7-iyulda Amerika Qo‘shma Statlarining jahonga mashhur «Xaffington post» internet nashri Samarqandni inson o‘z umri davomida hech bo‘lmaganda bir marta borib ko‘rishi albatta zarur bo‘lgan dunyodagi 50 ta shaharning biri sifatida e’tirof etdi va ana shunday shaharlar ro‘yxatiga kiritdi.

Demak, bugungi kunda Samarqand haqida so‘z yuritganda, uni dunyodagi inson o‘z umri davomida albatta borib ko‘rishi zarur bo‘lgan shaharlardan biri, deb g‘urur bilan ta’riflashimiz ham o‘rinli bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizdagi Registon kabi muazzam tarixiy yodgorliklar milliy o‘zligimizni, xalqimiz dunyoda hech kimdan kam bo‘lmagani va kam bo‘lmasligini anglab yashashga xizmat qiladi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Registon maydoni nima uchun Samarqandning yuragi deb ataladi?
2. Bu yerda nechta buyuk obida qad rostlagan?
3. Mirzo Ulug‘bek madrasasi nima uchun aynan shu nom bilan ataladi?
4. Mirzo Ulug‘bek madrasasining qarshisida qanday obida joylashgan?
5. Tillakori madrasa-masjidi nima uchun shu nom bilan ataladi?
6. Sherdor va Tillakori yodgorliklari kim tomonidan barpo etilgan?



7. Samarqand shahriga rasmlarda ko'rsatilgan qaysi transport vositalari bilan borish mumkin?



### **«Samarqand – Yer yuzining sayqali» mavzusidagi amaliy mashg'ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 152–154-betlar.

2. Islom Karimov. Asarlar, 15-jild. Toshkent, «O'zbekiston», 2007-yil, 303–314-betlar.

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 7-jild. Toshkent, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004-yil, 457–460-betlar.

4. Samarqand – 2750. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007-yil.



## TAKRORLASH

### «ENG ULUG‘, ENG AZIZ AYYOM» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Yurtimizdagi qaysi bayramni eng ulug‘, eng aziz ayyom sifatida nishonlaymiz?
2. Mamlakatimizda keng nishonlanadigan yana qanday bayramlarni bilasiz?
3. Afg‘on qizi nima uchun niyatiga yetolmadi?
4. O‘zbekistonda qizlar qanday ta‘lim-tarbiya olishmoqda?
5. Mamlakatimizda qancha musiqa va san‘at maktabi mavjud?
6. «O‘zbekiston maktablari» matnining mazmuni haqida gapiring.
7. Rasmlarga qarab, mustaqillik bergan imkoniyatlar haqida so‘zlab bering.



1



2



3



4

### TESTLAR

#### 1. Qaysi bayramni eng ulug‘, eng aziz ayyom sifatida nishonlaymiz?

- |                     |                                   |
|---------------------|-----------------------------------|
| A) Navro‘z bayrami  | C) Konstitutsiya kuni             |
| B) Mustaqillik kuni | D) O‘qituvchi va murabbiylar kuni |

#### 2. Qaysi bayramlar yurtimizda keng nishonlanadi?

- |                               |  |
|-------------------------------|--|
| A) BMT tashkil topgan kun     | D) Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Navro‘z, Xotira va qadrlash kuni |
| B) YUNESKO tashkil topgan kun |  |
| C) Qovun sayli                |  |

**3. Mamlakatimizda necha yillik umumiy majburiy ta'lim tizimi joriy etilgan?**

- A) 9 yillik  
 B) 3 yillik  
 C) 5 yillik  
 D) 12 yillik

**4. Dunyoda qaysi gunoh kechirilmaydi?**

- A) Dangasalik  
 B) Loqaydlik  
 C) Qo'rqoqlik  
 D) Xiyonat

**«MUSTAQILLIGIMIZ ABADIY BO'LSIN!» MAVZUSI  
 BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. Rasmlar asosida biz uchun abadiyatga daxldor bo'lib tuyuladigan lahzalar haqida gapirib bering.



2. Biz nima uchun yaxshi narsalarning abadiy bo'lishini istaymiz?  
 3. Ajdodlarimiz qanday sharoitda mislsiz yutuqlarga erishganlar?  
 4. «Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi» degan so'zlarni kim va qachon aytgan?  
 5. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobining muallifini ayting.  
 6. Amir Temur bobomiz qaysi so'zlari bilan o'z ishining abadiyatga daxldor ekanini ta'kidlagan?  
 7. Mirzo Ulug'bek bobomiz-chi?  
 8. Mumtoz mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning «Qiyomatg'a deguncha ahli ayyom, Yozarlar aning ahkomidin ahkom» degan satrlarining ma'nosini tushuntiring.

## TESTLAR

**1. Prezidentimiz Islom Karimovning mustaqillikka erishish arafasida aytgan so‘zlarini toping.**

- A) «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik»
- B) «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat»
- C) «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»
- D) «Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi»

**2. Amir Temur bobomizning so‘zlari keltirilgan qatorni toping.**

- A) «Mard maydonda bilinar»
- B) «O‘zbekiston – Olloh nazari tushgan yurt»
- C) «Oltin o‘tda, odam mehnatda sinalar»
- D) «Kim bizning qudratimizga shubha qilsa, qurgan imoratlarimizga boqsin»

**3. «O‘z ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim» degan so‘zlarni kim aytgan?**

- A) Amir Temur
- B) Alisher Navoiy
- C) Abdulla Qodiriy
- D) Mirzo Ulug‘bek

**4. Alisher Navoiyning «Qiyomatg‘a deguncha ahli ayyom, Yozarlar aning ahkomidin ahkom» degan satrlari kimga bag‘ishlangan?**

- A) Farhodga
- B) Amir Temurga
- C) Husayin Boyqaroga
- D) Mirzo Ulug‘bekka

### «VATANIMIZ POYTAXTI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Toshkent shahrida nechta tuman bor?
2. Qadimda Toshkent qanday nomlar bilan atalgan?
3. Toshkent shahrining nechta darvozasi bo‘lgan?
4. Toshkentda yashab o‘tgan buyuk allomalar, aziz-avliyolardan kimlarni bilasiz?
5. Istiqlol yillarida Toshkent qanday shaharga aylandi?
6. Poytaxtimizda qanday oliy hokimiyat organlari, markaziy idoralar faoliyat ko‘rsatadi?
7. Toshkentni nima uchun yoshlar shahri deymiz?





5. Qaysi rasmda Hazrati Imom majmuasi aks ettirilgan?



1



2



3



4

6. Xotira maydonida qanday haykal bor?

7. Xotira maydonida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan qancha yurtdoshimizning ismi sharifi yozilgan?

8. Ushbu rasmlar ichidan Motamsaro ona haykalini toping.



1



2



3



4

9. Samarqanddagi eng qadimiy masjidning nomini ayting.

### TESTLAR

1. Hazrati Imom majmuasi joylashgan shaharni toping.

- A) Samarqand
- B) Qarshi

- C) Toshkent
- D) Andijon

2. Qaysi obida qo'sh minorali obida hisoblanadi?

- A) Ko'kaldosh
- B) Hazrati Imom jome masjidi

- C) Amir Temur maqbarasi
- D) Imom Moturidiy yodgorlik majmuasi

3. Usmon Qur'oni qaysi kutubxonada saqlanadi?

- A) O'zbekiston Milliy kutubxonasi
- B) Temuriylar tarixi davlat muzeyi
- C) O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi
- D) Mo'yi muborak madrasasidagi muzey-kutubxona

#### 4. Qaysi haykal Xotira maydonida joylashgan?

- A) Motamsaro ona  
 B) Baxtiyor ona  
 C) El-yurt tayanchi  
 D) Vatanga qasamyod

#### «O‘ZBEKISTON MILLIY BOG‘I» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. O‘zbekiston Milliy bog‘i kimning nomi bilan ataladi?
2. Milliy bog‘da qaysi buyuk shoir va yozuvchilarning haykallari bor?
3. Ushbu rasmlar ichidan O‘zbekiston Milliy bog‘idagi haykalni toping.



4. Milliy bog‘dagi amfiteatrda qaysi umumxalq bayramlarimiz bo‘lib o‘tadi?
5. Amir Temur xiyoboni qayerda joylashgan?
6. Ushbu xiyobonga kimning haykali qo‘yilgan?
7. Rasmlar ichidan Amir Temur xiyobonidagi haykalni toping.



8. «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyi qachon barpo etilgan?

#### TESTLAR

#### 1. O‘zbekiston Milliy bog‘ining umumiy maydoni necha gektar?

- A) 50 gektar  
 B) 15 gektar  
 C) 69 gektar  
 D) 70 gektar

**2. Milliy boqqa qaysi shoir va yozuvchilarning haykallari qo'yilgan?**

- A) Bobur Mirzo, Abdulla Qodiriy
- B) Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Oybek, Said Ahmad va Saida Zunnunova
- C) Zulfiya va Hamid Olimjon
- D) Cho'lpon, G'afur G'ulom

**3. Qaysi buyuk ajdodimizning haykali Amir Temur xiyoboniga qo'yilgan?**

- A) Alisher Navoiy
- B) Oybek
- C) Amir Temur
- D) Mirzo Ulug'bek

**4. Toshkent shahrining necha yillik yubileyi nishonlandi?**

- A) 2000 yilligi
- B) 2500 yilligi
- C) 2700 yilligi
- D) 2200 yilligi

**«TARIXIY XOTIRA» MAVZUSI BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. «Manqurt» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. Kyudzo Kato kim?
3. Ushbu rasmlarda qaysi tarixiy yodgorliklar aks ettirilgan?



**TESTLAR**

**1. Qanday tuyg'u ajdodlarimizni haqiqiy tariximizni bilishga undagan?**

- A) Vorisiylik tuyg'usi
- B) O'zlik tuyg'usi
- C) Tarixiy xotira tuyg'usi
- D) Adolat tuyg'usi

**2. «Manqurt» so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Tarixiy xotirasini yo‘qotgan kimsa  
 B) Qo‘lsiz-oyoqsiz inson  
 C) Ko‘zi ojiz kishi  
 D) Yo‘lini yo‘qotgan odam

**3. Kyudzo Kato kim?**

- A) O‘zbek olimi  
 B) Yapon olimi  
 C) Xitoy tarixchisi  
 D) Yapon yozuvchisi

**4. «O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q» degan so‘zlar Prezident Islom Karimovning qaysi asaridan olingan?**

- A) «Olloh qalbimizda, yuragimizda»  
 B) «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida»  
 C) «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»  
 D) «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat»

**«REGISTON MAYDONI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. Registon maydoni qayerda joylashgan va uni yana qanday nom bilan ataydilar?
2. Mirzo Ulug‘bek madrasasi kim tomonidan qurilgan va unda kimlar dars bergan?
3. Alisher Navoiy qayerda ta‘lim olgan?
4. «Registon» so‘zining ma’nosini ayting.
5. Tarixda yana qaysi shaharlarimizda Registon maydonlari bo‘lgan?
6. Ushbu rasmlarga qarab, Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari maydonning qaysi tarafida joylashganini aytib, ko‘rsatib bering.



## TESTLAR

### 1. Qaysi madrasa Registon maydonida joylashgan?

- A) Ko‘kaldosh  
B) Bibixonim  
C) Mirzo Ulug‘bek  
D) Mir Arab

### 2. Sher nomi bilan atalgan madrasa qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Mirzo Ulug‘bek  
B) Abulqosim  
C) Mo‘yi muborak  
D) Sherdor

### 3. Qaysi madrasa qimmatbaho metall nomi bilan bog‘liq?

- A) Sherdor  
B) Ko‘kaldosh  
C) Mirzo Ulug‘bek  
D) Tillakori

### 4. Registon maydonida o‘tadigan xalqaro festival qanday ataladi?

- A) «Sharq-u g‘arb»  
B) «Jahon musiqasi»  
C) «Sharq teatri»  
D) «Sharq taronalari»







*Aziz o'quvchi, quyida e'tiboringizga havola etilayotgan asar ham Vatan haqidagi bilim va tasavvurlaringizni mustahkamlaydi, deb o'ylaymiz.*

**Ozod Sharafiddinov**

## **O'LSAM AYRILMASMAN QUCHOQLARINGDAN**

Sehrli musiqaday jaranglovchi bu ajib so'zlarni ilk bor bolaligimda – urush boshlangan yili eshitgan edim. Yosh tomoshabinlar teatrining Eski Jo'vadagi almisoqdan qolgan torgina zali. Odam tirband. Sahnada past bo'yli, kulcha yuzli, istarasi issiq artist ko'zlari chaq nab, ovozini bir ko'tarib, bir pasaytirib, hayajon bilan she'r o'qimoqda.

**Vatan – ona so'zi naqadar laziz,  
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz,  
Hurmatingni saqlar har bir o'g'il-qiz,  
Muqaddas, mo'tabar, ulug' Vatanim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.**

Ko'p o'tmay, teatr zalida o'tirganim ham, she'rni sahnada artist o'qiyotgani ham unut bo'ldi. She'r misralari, ayniqsa, har band oxirida takrorlanayotgan «O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» degan ibora go'yo yuragimda tug'ilib, ichimdan jo'shib chiqayotgandek. Uchta oddiy so'zdan tarkib topgan bu otashin xitob she'r emas, butun umr amal qiladigan tantanavor qasamday jaranglardi.

Keyin chindan-da shunday bo'ldi – Uyg'un qalamiga mansub bu misra butun umrim mobaynida menga hamroh bo'lib kelmoqda. Qadamim yetib borgan turli makonlarda, turli sharoitlarda bu misra mendan so'rab ham o'tirmay, birdan qalbimda jaranglab ketadi. Shunda, yurtimizning saxiy quyoshidan bahramand bo'lgan yam-yashil dalalarda, ko'nglim yorishib ketadi. Tomirlarimda yangi kuch yugurayotganday, o'zimni bardam seza boshlayman.



Vatan. Vatan tuyg‘usi. Vatan muhabbati. Nimadir bular? Bular qanday sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyo ko‘rmagan, turmushning past-balandlaridan bexabar, o‘yin-u sho‘xliklardan o‘zga dardi yo‘q bir o‘smirning yuragiga jo bo‘lib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini boshqarib turadi. Bu tuyg‘u inson farzandida tug‘ma bo‘larmikan? Yoki go‘dak tamshana-tamshana onasini emganida, ona suti bilan birga bu tuyg‘u uning ham to-

mirlariga yugurarmikan? Umuman, «Vatan» deganning o‘zi nadir? Tug‘ilib o‘sgan uyingmi? Beshikdagi qulog‘ingga kirgan mungli va ayni chog‘da nurli allami? Buvingning ertaklarimi? Maktabmi? Ilk visol onlariga guvoh bo‘lgan so‘lim xiyobonlarmi?

Albatta, bularning hammasi va yana allaqancha narsalar birlashib, Vatan degan tuyg‘uning so‘nmas timsolini yaratsa kerak. Va yana o‘ylaymanki, bolaning murg‘ak qalbidagi ilk bor paydo bo‘lgan Vatan timsoli har qancha yorqin bo‘lmasin, hali o‘zining shakl-u shamoyilini to‘la topib ulgurmagan bo‘ladi. Vatan tuyg‘usi insonning o‘zi bilan birga o‘sib-ulg‘ayadigan tuyg‘u bo‘lar ekan. Tajribangiz ortgani sari, hayot doshqozonida qaynab, pisha borganingiz sari Vatanni ko‘proq qadrlaydigan bo‘lib qolasiz, u haqidagi tasavvurlaringiz to‘lishib, kengayib, boyib boradi. Vatan tuyg‘usi butun vujudingizni qamrab oladi, har bir hujayrangizga tomir yozadi. Siz endi anglay boshlaysizki, Vatan nafaqat jo‘shqin yoshlik damlari bilan bog‘liq so‘lim maskandir. Inson ham niholday gap – uni undirib-o‘stiradigan ona zamin bor, quyosh, suv, havo uni o‘z ne‘matlaridan bahramand qiladi. Shuning uchun bularning bari inson uchun aziz va ardoqli. Lekin bular hali tugal Vatan emas.

Odamzod shunday yaratilgan-ki, u boshqalardan ajralgan holda, yakka-yolg'iz, so'ppayib umrguzaronlik qila olmaydi. To'g'ri, odamlar orasida tarki dunyo qiladiganlari, tanholikni yoqtiradiganlari, hech kimni jini suymaydiganlari ham bor. Ammo ular har qancha tanho bo'lmasin, el-u yurtidan yuz o'girib, har qancha g'orlar ichini makon qilmasin, baribir, minglab rishtalar orqali dunyo bilan bog'liq bo'ladi. Hatto, umrining yarmini xumda yashab o'tkazgan qadimgi yunon faylasufi Diogen ham, baribir, shogirdlari bilan, boshqa faylasuflar bilan aloqa qilib turgan. Ota-onalar, farzandlar, qarindosh-urug'lar, yor-u birodarlar, do'stlar-u dugonalar har qanday inson hayotiga turfa xil ma'no baxsh etadi. Odam ularni yaxshi ko'rishi, ular bilan inoq yashashi mumkin, ularni yoqtirmasligi ham mumkin. Lekin, nima bo'lganda ham, ularning hammasidan yuz o'girib, butunlay voz kechib bo'lmaydi...

Vatanga muhabbat, onaga muhabbat kabi, muqaddas va yuksak tuyg'u. Onaga muhabbatning shunday bir o'ziga xosligi borki, odam bu tuyg'usi haqida olamga jar solib, hammani undan voqif qilavermaydi, hatto onasining o'ziga ham har kuni «Onajon, men sizni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman» deyavermaydi. Lekin har kuni onasiga g'amxo'rliqi, mehribonligi, saxovati va shafqatini ishi bilan, gap-so'zlari, xatti-harakatlari bilan amalda namoyon qiladi.

Vatan muhabbati ham shunday: u hammaga ko'z-ko'z qilinmaydi, u to'g'rida tantanavor e'lonlar chop etilmaydi, har muyulishda odam ko'kragiga urib, Vatanga oshiqligini pisanda qilmaydi. Madaniyatning yuksak pog'onalariga ko'tarilgan jami-



**O'zbekiston Qahramonlari –  
Prezident Islom Karimov  
va adabiyotshunos olim  
Ozod Sharafiddinov**

yatlarda odamlar o‘z Vataniga muhabbatni shovqin-suron ko‘tarmay, maqtanchoqliksiz namoyon etadi. Vatanga muhabbat bozorga solinadigan matoh emas, balki inson qalbining to‘rida gard yuqtirmay pokiza saqlanadigan eng nafis, eng inja bir tuyg‘udir...

Vatanni sevish va ayniqsa, uni amalda namoyon qilish unchalik oson ish emas. Bu odamdan juda katta jasoratni, bardosh va chidamni talab qiladi. Qizig‘i shundaki, Vatan o‘z farzandlaridan har oyda, har haftada, har soat, har soniyada jon fido qilishni talab etmaydi. Vatan yo‘lida sodir bo‘ladigan bunday fidokorlik eng yuksak, eng oliy fidokorlik bo‘lib, u favqulodda hollarda ro‘y beradi...

Odam ota-onasini tanlay olmaganidek, Vatanni ham tanlay olmaydi. Albatta, Olloh odamga Vatanni muzliklardan ham, sahrolardan ham, changalzorlardan ham ato etishi mumkin. Lekin siz bilan bizga Olloh O‘zbekiston deb atalgan, tuprog‘ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog‘ desa tog‘i bor, bog‘ desa bog‘i bor, har tongda bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o‘zimizni baxtli deb bilmog‘imiz kerak. Prezidentimiz aytganidek, shukronalik bilan yashamog‘imiz lozim...

Aziz vatandosh! Siz bilan biz o‘zbeklarmiz. O‘zbekning o‘z g‘ururi bor. Bugun biz dunyo xalqlari safidan munosib o‘rin olishga harakat qilmoqdamiz. Lekin biz, g‘ururimiz har qancha baland bo‘lmasin, o‘z qadrimizni har qancha baland tutmaylik, o‘zimizni hech kimdan yuqori qo‘ymoqchi, bironta xalqni kamsitib, pastga urmoqchi emasmiz. Biz yaxshi bilamizki, Olloh jahon ayvonida o‘zining hamma bandalarini teng qilib, birodar qilib, do‘st qilib yaratgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> **Ozod Sharafiddinov.** Ma’naviy kamolot yo‘llarida. —T.: «Ma’naviyat», 2001-yil, 16–26-betlar. Ayrim qisqartirishlar bilan bosilmoqda.

## ***Ikkinchi bob. JAHON MARDNI TAN OLADI***

### **MODDIY VA MA'NAVIY HAYOT**

Aziz o'quvchi, buyuk tarixga ega bo'lgan xalqning ma'naviyati ham buyuk bo'ladi.



*Lug'atlarda yozilishicha, ma'naviyat «ma'ni», «ma'no» so'zlarining ko'plik shaklidir.*

«Ma'naviyat» tushunchasining mazmuni faqat ana shu so'zlar bilan chegaralanib qolmaydi.



***«Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi»<sup>1</sup>.***

Odamzod moddiy va ma'naviy ehtiyojlar bilan tirik. Ularni bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi. Moddiy intilishlar kuchayib ketsa, odamlar ma'naviy qiyofasini, o'zaro hurmat, go'zallikni qadrlash, haqiqatga ishonch kabi fazilatlarini boy berishi mumkin.

Aksincha, faqat ma'naviy intilishlar bilan ham yashab bo'lmaydi. Chunki bunday hayot odamlarning moddiy taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga, hatto maktab, kutubxona, teatr, muzey singari ilm-ma'rifat maskanlari qurishga ham mablag' topolmasdan, oxir-oqibatda ruhiy qashshoq bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 19-bet.






**«Insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamosoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi»<sup>1</sup>.**

Darhaqiqat, agar dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, aynan moddiy va ma'naviy boyliklarni uyg'unlashtirib, taraqqiyot yo'lida ulardan keng foydalanish yaxshi natijalar berganini ko'ramiz. Bularning barchasi sobiq sho'ro davrida shakllangan «moddiy boylik odamni buzadi», «moddiy olam – birlamchi, ma'naviy olam – ikkinchi darajali» degan, aslida bir-biriga zid bo'lgan qarashlarning qanchalik noto'g'ri ekanini ko'rsatadi.



**Agar moddiy boylik halol mehnat bilan topilgan bo'lsa va yuksak ma'naviyat asosida aql bilan ishlatilsa, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.**



**Alfred Nobel**

Jahon tarixida shaxsiy boyligini ma'naviyatga, o'z xalqining ma'rifiy taraqqiyotiga sarflagan insonlar ko'p bo'lgan. Masalan, Rossiyada asli savdogar bo'lgan Pavel Tretyakov ismli kishi yoshlikdan o'ziga xos muzey va rasmlar galereyasi tashkil etishni orzu qilgan. Shu niyatda ko'plab badiiy asarlarni sotib olgan. Umri-ning oxirlarida esa bu boylikning barchasini Moskva shahriga tortiq qilgan. Rossiyadagi mashhur Tretyakov galereyasi shu tariqa vujudga kelgan. Bugungi kunda har qanday

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 67-bet.

madaniyatli odam eng noyob tasviriy san'at asarlari to'plangan bu muzeyni ko'rishni orzu qiladi.

Dunyodagi eng nufuzli xalqaro Nobel mukofotining asoschisi shvetsiyalik Alfred Nobeldir. O'zi to'plagan boylikni ma'naviyatga xizmat qildirish olish yo'lini topgan bu oliyjanob inson asli kimyogar-muhandis bo'lgan.

Bizning buyuk ajdodlarimiz ham bu borada ko'p ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Xususan, ulug' mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy shaxsiy mablag'i hisobidan yo'llar, ko'priklar, hammomlar, karvonsaroylar, kutubxona va madrasalar qurdirgan, iste'dodli shoir, musavvir va adabiyotshunoslarni homiyligiga olib, ularga maosh to'lab turgan.

Moddiy boyliklarni ezgu ishlarga xizmat qildirgan bunday saxovatli ajdodlarimizning ezgu an'alarini bugungi yurtdoshlarimiz munosib davom ettirmoqda. O'z hisobidan bog'cha yoki maktab, yo'l qurgan, bolalar uylariga, shartnoma asosida o'qiyotgan talabalarga yordam ko'rsatayotgan, mahallalar hududini obod qilishga hissa qo'shayotgan insonlar bugungi kunda yurtimizda ko'payib bormoqda. Bularning barchasi moddiy boylikni ma'naviyat yo'lida xizmat qildirishning yuksak namunasidir.



**Navoiy shahridagi  
Alisher Navoiy haykali**



**O'z boyligi va mablag'ini ma'naviyatga, ming-minglab odamlarga foydasi tegadigan ezgu ishlarga sarflash oliyjanoblikdir.**

Oliyjanoblik bo‘lmagan joyda xudbinlik, baxillik, faqat o‘zini o‘ylab yashash kabi salbiy holatlar avj oladi. Bu oxir-oqibatda ma’naviyatning susayishiga sabab bo‘ladi.

Shu ma’noda, oliyjanoblik, muruvvat, saxovat fazilatlarini moddiy va ma’naviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlab, jamiyatning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asrlar davomida bunday fazilatlar bizning xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ular Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, aynan ona yurt, ona xalqqa bo‘lgan ulkan mehr tufayli bu xususiyatlar kamol topib boradi. Bunday ibratli fazilatlarining negizida ma’naviyat mujassam bo‘ladi.

Buyuk ajdodlarimizdan qaysi birining hayotiga nazar solmaylik, barchasining faoliyatida ibratli fazilatlar, ya’ni ma’naviyat asosida yashash bosh mezon bo‘lganini ko‘ramiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Ma’naviyat so‘zining ma’nosini tushuntiring.
2. Prezidentimiz nimalarni parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslash o‘rinli, deb ta’kidlagan?
3. Moddiy va ma’naviy ne’matlarni siz qanday tushunasiz?
4. Ushbu rasmlardagi lavhalarning qaysi biri moddiy, qaysi biri ma’naviy hayotga tegishli ekanini ayting.



1



2



3



4

5. Alfred Nobel kim bo‘lgan?
6. Alisher Navoiy qanday ezgu ishlarni amalga oshirgan?
7. Xalqimizga xos ibratli fazilatlardan qaysilarini bilasiz?

## Amaliy mashg'ulot

### OLIJJANOBLIK

#### Rivoyat

Buyuk shoir va mutafakkir, kuragi yerga tegmagan mohir kurashchi Pahlavon Mahmudning dovrug'i Xorazmdan Hindiston zaminigacha yetib boribdi. Uni hindlarning eng kuchli polvonlari bilan kurashga chorlashibdi. Pahlavon Mahmud bobomiz birin-ketin ularning barchasini mag'lub etibdi.

Xorazmlik bahodirning kuchi va mahoratiga qoyil qolgan hind podshosi uni huzuriga taklif etib, yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatibdi va tila tilagingni, debdi. Shunda Pahlavon Mahmud hech o'ylab o'tirmasdan bunday debdi: «Janobi oliylari, urush paytida sizlarga asir tushgan vatandoshlarimni ozod qilsangiz, bas, mening yakka-yu yagona tilagim shu!»

Hind podshosi Pahlavon Mahmud nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham mard va oliyjanob ekaniga tan berib, asir olingan barcha xorazmliklarni ozod qilgan ekan.

Aziz o'quvchi, ko'rdingizmi, bir insonning ma'naviy fazilati, ya'ni oliyjanoblighi tufayli yuzlab odamlar tutqunlik azobidan xalos bo'lgan. Bu tarixiy rivoyat Prezidentimiz tomonidan aytilgan, mashhur kitobning nomi sifatida barchamizga ma'lum bo'lgan «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» degan so'zlar chuqur hayotiy asosga ega ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Chindan ham, ma'naviyati kuchli insonni, xalq va jamiyatni yengib bo'lmaydi.

Shuni yodda tutingki, ma'naviy fazilatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun oliyjanob, muruvvatli va saxovatli inson albatta halol, pok hamda adolatli bo'ladi. Agar siz ajdodlarimizning fazilatlar tarixi bitilgan qadimiy kitoblarini diqqat bilan o'qisangiz, bunga qayta-qayta ishonch hosil qilasiz.



**«Ma'lumki, Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo temuriy hukmdorlardan biri edi. Bobur o'z xotiralarida otasining naqadar adolatli va halol odam bo'lganini ko'rsatuvchi shunday**

*ma'lumotni keltirib o'tadi. Qay bir yili Xitoydan Farg'onaga kelayotgan ming kishilik karvon O'sh tog'larida qor ko'chkini ostida qolib, halok bo'ladi. Umarshayx Mirzo darhol odamlarini yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldiradi. Egallari halok bo'lgan shu mollarni ikki yildan ziyod avaylab saqlaydi. Xuroson va Samarqandga maxsus odam yuborib, karvon egallari-ning merosxo'rlarini daraklatib toptiradi va ularni o'z mamla-katiga chaqirtirib, mollarni to'laligicha qo'llariga topshiradi»<sup>1</sup>.*

Ota-bobolarimizga xos ana shunday halollik, to'g'rilik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik fazilatlari ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Turmush tarzimiz, milliy xarakterimizga singib ketgan bunday xususiyatlarni yurtimizda 70 yildan ziyod hukmronlik qilgan yovuz sho'ro mafkurasi ham hayotimizdan siqib chiqarolmadi. Agar siz ustoz yozuvchimiz O'lmas Umarbekovning asari asosida tayyorlangan «Qiyomat qarz» nomli spektaklni tomosha qilsangiz, unda oddiy qishloq odamining qalbida ana shunday fazilatlar e'tiqod darajasiga ko'tarilganini ko'rasiz.



**Andijon shahridagi  
Bobur Mirzo haykali**

Mustaqillik yillarida el-yurtimizning bunday fazilatlari yangitdan qadr-qimmat topib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan aytilgan «Savob ishni har kun qilish kerak, savob ishni har kim qilishi kerak» degan da'vat asosida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarni bugungi kunda har qadamda ko'rishimiz mumkin.

Aziz o'quvchi, ana shunday ibratli fazilatlar egasi bo'lgan xalqning farzandi sifatida biz doimo yaxshilik qilishga intilib yashashimiz lozim. Shundagina buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lib, bu hayotda biz ham o'zimizdan munosib nom qoldirishga erishamiz.

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Adolatli jamiyat sari. –T.: «O'zbekiston», 1998-yil, 110-bet.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Nima uchun hind podshosi Pahlavon Mahmudning mardligi va oliyanobligiga tan berdi?
2. Bobur Mirzoning otasining ismini ayting.
3. Xitoydan Farg'onaga kelayotgan karvon qanday halok bo'ladi?
4. Umarshayx Mirzoning halol va adolatli bo'lgani haqida gapirib bering.
5. Prezidentimiz tomonidan aytilgan da'vatning ma'nosi haqida so'zlang.
6. Rasmlarda xalqimizga xos qanday fazilatlar aks etgan?





## O'TDA YONMAYDIGAN MEROS

Aziz o'quvchi, moddiy boylik qanchalik ko'p, qanchalik bebaho bo'lmasin, bir kuni kelib eskirishi yoki turli falokatlar tufayli o'tda kuyib, suvga cho'kib ketishi mumkin. Ma'naviy boylikning afzalligi shundaki, unga vaqt, zamon o'z ta'sirini o'tkazolmaydi.



**Ma'naviy boylik o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi, toki inson, xalq va millat bor ekan, ularning qalbida, ong-u shuurida yashayveradi.**

Necha asrlar davomida xalqimiz kabi uning ma'naviy boyliklari ham og'ir va murakkab sinovlarni boshidan kechirdi. Lekin qanchalik shafqatsiz qirg'in va bosqinlarga duch kelmasin, xalqimiz hayotida ma'naviyat bulog'i hech qachon qurib qolmadi.

## 12 MING QORAMOL TERISIGA BITILGAN KITOB

Bundan 2700 yil avval bizning yurtimiz hududida yaratilib, 12 ming qoramol terisiga tilla suvi bilan yozilgan «Avesto» kitobi chet o'lkalarda ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Dunyodagi turli kuchlar bu boylikka egalik qilishga uringan. Masalan, mashhur yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy 32 kitobdan iborat bu asarning asl nusxasini Yunonistonga yuborgan. Yunonlar mazkur kitobning tibbiyot, astronomiya, falsafaga oid boblarini alohida ko'chirtirib olib, qolgan sahifalarini olovga tashlab, yoqib yuborgan. Bizning diyorumizda tug'ilgan buyuk kashfiyotlar shu tariqa Yunoniston orqali butun Yevropaga yoyilgan.

Bu haqiqatni g'arb olimlari ham e'tirof etgan. Mashhur nemis faylasufi Fridrix Nitsshe «Avesto» hikmatlaridan ruhlanib, «Zardusht tavallosi» nomli asar ham yozgan.

Bu kitob o'tda yondirilganiga qaramasdan, uning ko'pchilikka yod bo'lib ketgan g'oyalari xalqimizning qalbida, kundalik urf-odat va an'alarida yashayvergan. Bu asarning asosiy g'oyasi bo'lgan ezgulik bugungi kunda ham barcha orzu-intilishlarimizning negizida mujassam ekani haqida siz avvalgi darslarimizdan yaxshi xabardorsiz.



**Urganch shahridagi  
«Avesto» yodgorligi**

Bilim va ezgulikning inson, jamiyat hayotidagi ulkan ahamiyatini yaxshi tushungan ma'rifatli xalqlar o'z kuchi, moddiy imkoniyatlarini ana shunday hech qachon yo'qolmaydigan ma'naviy boyliklarga sarflashga harakat qilgan.

El-yurtimiz azaldan bilim-ma'rifatga intilib yashaydigan xalq sifatida dunyoga tanilgan. Buning isbotini butun hayotini ilm-fan rivojiga bag'ishlab, jahon ahlini hanuzgacha hayratga solib kelayotgan buyuk allomalarimiz misolida yaqqol ko'rish mumkin.

## **MING YILDA BIR TUG'ILADIGAN ALLOMA**

Qadimiy Xorazm zaminidan yetishib chiqqan ulug' ajdodimiz Mahmud Zamaxshariy ilm-u ma'rifat yo'lidagi beqiyos xizmatlari uchun «Jorulloh», ya'ni «Ollohning qo'shnisi» degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. U yaratgan «Al-mufassal» kitobi arab tilining grammatikasiga asos qilib olingan bo'lib, arab dunyosida unga hozirgacha amal qilinadi. Shu bois arab mutafakkirlaridan biri «Olamdagi barcha qishloqlar jamlanib, Xorazmning birgina

Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa arziydi. Chunki bu qishloq ming yillarda bir marta dunyoga kelishi mumkin bo‘lgan Zamaxshariydek mashhur allomaning vatanidir» deganida to‘la haqlidir<sup>1</sup>.

Yurtimiz shuhratini olamga yoygan alloma bobolarimizdan yana biri tabobat ilmida ulkan kashfiyotlarni amalga oshirgan, shayxur-ra'is, ya'ni allomalarning eng ulug‘i nomini olgan Abu Ali ibn Sinodir. U zotning «Tib qonunlari» asari Yevropa universitetlarida olti asr davomida darslik sifatida o‘qitilgan, o‘ziga xos falsafiy ta‘limoti esa olimlar tomonidan hanuz katta qiziqish bilan o‘rganiladi.

### *Rivoyat*

#### **Ibn Sino va oshiq yigit**



**Toshkent shahridagi  
Ibn Sino haykali**

Bir yigit qattiq betob bo‘lib qolibdi. Hech qaysi tabib uning dardiga davo topa olmabdi. Ota-onasi oxiri buyuk hakim Ibn Sinoga murojaat qilibdi. Ulug‘ alloma yigitning tomirini ushlab: «Shu yaqin-atrofdagi mahallalarning nomini aytingiz», – debdi. Qaysidir mahallaning nomi aytilganida, yigitning tomir urishi tezlashib ketibdi. Shunda Ibn Sino yana xonadon sohiblariga qarab: «Endi o‘sha mahalladagi ko‘chalarning nomini aytingiz», – debdi. Ko‘chalardan birining nomini eshitganida yigitning tomiri yana tez ura boshlabdi. Buyuk tabib bemor dardining sababini tobora aniq his etib: «Endi o‘sha ko‘chada yashaydigan qizlarning nomini aytingiz», – debdi. Qizlardan birining nomi aytilganida, yigit oh tortib yuboribdi. «O‘g‘lingizning kasali ma‘lum bo‘ldi, – debdi Ibn Sino, – uni qiynayotgan dard – muhabbat dardidir».

<sup>1</sup> Islom ziyosi o‘zbe'gim siy mosida. – Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001-yil, 189-bet.



*Ibn Sino nima uchun bemor yigitga dori yozib bermadi?*



*«Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta'riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi»<sup>1</sup>.*



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Moddiy boylik abadiy turishi mumkinmi?
2. Ma'naviy boylikni yo'q qilib bo'ladimi?
3. «Avesto» kitobi nechta qoramol terisiga yozilgan?
4. O'tda yoqilgan bu kitob butunlay yo'q bo'lib ketdimi?
5. Mahmud Zamaxshariy kim bo'lgan?
6. Rasmlar orasidan Abu Ali ibn Sinoning eng mashhur asarini ko'rsating?



<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 42-bet.

*Amaliy mashg'ulot***O'ZBEKISTON – BUYUK  
ALLOMALAR YURTI**

Aziz o'quvchi, ona Vatanimiz haqida so'z borganida, ko'pchilik uning yana bir xususiyatini ta'kidlaydi. Bu – mamlakatimiz qadimdan buyuk allomalar yurti sifatida mashhur ekanidir. Shu mavzudagi xalqaro konferensiya 2014-yil 15–16-may kunlari aynan bizning diyorumizda, ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida o'tkazilganidan siz avvalgi darslarimiz orqali yaxshi xabardorsiz. Bu anjumanda o'rta asrlarda yurtimizdan shu qadar ko'p va buyuk allomalar yetishib chiqqani dunyo tarixida kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa ekani alohida ta'kidlandi.

*Rivoyat***Olimlik martabasi**

**Toshkent shahridagi  
Mirzo Ulug'bek  
haykali**

Mirzo Ulug'bekdan: «Siz nega siyosatdan ko'ra ilmga ko'proq qiziqqansiz?» – deb so'raganlarida, bunday deb javob bergan ekan: «Men ilmning qudratini bobomdan bildim. Bir safar bobomning tizzasida o'ltirardim. Uning huzuriga bir kishi kirdi. Bobom shoshib o'rnidan turdi. Men uning tizzasidan tushib ketdim. Bobom bunga parvo ham qilmasdan, haligi odamni kutib olishga oshiqdi. Keyin bilsam, o'sha kishi bobomga bir paytlar ilm o'rgatgan ustozim ekan. Olimlik martabasi podsholikdan ham ulug'roq ekanini o'shanda bilganman. Shunda ko'nglimda olim bo'lish havasi uyg'ongan edi».



**Jahon tilshunos olimlari dunyodagi buyuk shoir va yozuvchilar orasida eng ko'p so'z boyligiga ega bo'lgan ijodkorni aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazgan. Uning natijasiga ko'ra, ulug' bobomiz Alisher Navoiy jahondagi so'z boyligi eng ko'p shoir sifatida tan olingan. Alisher Navoiy o'z asarlarida 26 ming 35 ta so'z ishlatgan ekan. Buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin 21 ming 193 ta, ingliz shoiri Uilyam Shekspir 20 mingdan ortiq so'z qo'llagan ekan.**

Shu bois Alisher Navoiy bobomiz butun dunyoda ma'lum-u mashhurdir. Bu ulug' zotning xotirasiga Rossiya Federatsiyasining poytaxti Moskva shahrida, Yaponiya poytaxti Tokioda va Ozarboyjon Respublikasi poytaxti Boku shahrida muazzam haykallar o'rnatilgani buyuk ajdodlarimizga, butun xalqimizga yuksak hurmat-ehtirom ifodasidir.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov Alisher Navoiyning buyuk dahosiga ulkan baho berib, ul zot haqida g'urur-iftixor bilan bunday so'zlarni yozgan:



**Boku shahridagi  
Alisher Navoiy haykali**



**«Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»<sup>1</sup>.**

Buyuk iste'dod sohibi bo'lgan yana bir ajdodimiz — Kamoliddin Behzod o'rta asrlarda Sharq rassomchiligida katta maktab yaratgan.

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 47-bet.



Bu zotni buyuk mutafakkir bobolarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur «musavvirlik ishini bisyor nozuk qildi», deya ta'riflaydi. Bu so'zlar Behzodning kishi chehrasi orqali uning ichki dunyosi, fe'l-atvorini juda nozik tasvirlab bera olish mahoratiga ishora. Garchi G'arbda Behzodni «Sharq Rafaeli», deya o'zlari bilgan va yaxshi ko'rgan rassomga qiyoslab ulug'lagan bo'lsalar-da, uning ijodi buyuk italyan rassomi va me'mori, g'arb uyg'onish davrining yetuk namoyandasi hisoblangan Rafael Santining ijodidan mutlaqo farq qiladi. Rafael Santi saroy va ibodatxonalarga suratlar ishlagan, katta-katta polotnolar chizgan. Kamoliddin Behzod esa inson ruhiyatini chuqur aks ettirgan Sharq, xususan, Movarounnahr va Xuroson miniatyura san'ati maktabiga asos solgan.



*Amudaryodan janub tarafdagi hududlar qadimda Xuroson deb atalgan.*



**G'arb uyg'onish davri dastlab XIV–XV asrlarda Italiyada boshlangan va butun Yevropaga yoyilgan. Uyg'onish davri deganda, o'rta asrlardagi diniy jaholat hukmron bo'lgan davrdan ma'rifiy qarashlar kuchaygan yangi davrga qadam qo'yish tushuniladi. Bu davr Sharqda biroz oldinroq – IX asrda boshlanib, XV asrgacha davom etgan.**

Yurtimiz tuprog'i moddiy boyliklar qatori ma'naviy boyliklarga ham kon. Uning har qarich yerida ko'hna sivilizatsiyaga daxldor bo'lgan noyob yodgorliklarni topish mumkin. Ularning aksariyati YUNESKO-ni maxsus ro'yxatida turishi ham shundan dalolat beradi. Katta bo'lib, dunyoning eng nufuzli muzeylarini tomosha qilsangiz, albatta, O'zbekistonga taalluqli bo'lgan nodir yodgorliklarga ham duch kelasiz. Bularning barchasi bizning naqadar ulkan ma'naviy boylikka voris ekanimizni bildiradi. Bular-ku ko'zga ko'rinib turgan boyliklarimiz, lekin bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan, odamlarimizga xos buyuk fazilatlar, ularning boy ruhiy dunyosi, go'zal fazilatlar, betakror his-tuyg'ulari-chi?

Agar daryolarning qanday hosil bo‘lishiga e‘tibor bergan bo‘lsangiz, tog‘lardagi jilg‘alar irmoqlarga, irmoqlar soylarga qo‘shilib, daryoga aylanadi. Ular o‘z yo‘lida qanchadan-qancha tosh-u giyohlarni, tuz va ma‘danlarni o‘ziga singdirib, yerning tomiriga hayot baxsh etib turadi.

Ma‘naviyatni ham ana shunday daryoga qiyoslash mumkin. U ham asrlar qa‘ridan ne-ne hayotiy tajribalarni, millionlab insonlarga xos bilim va hissiyotlarni o‘zi bilan birga olib keladi. Xuddi daryo suvi yerning tomirlariga hayot bag‘ishlab turganidek, u ham insonlar va xalqlar turmushiga ma‘no-mazmun beradi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Samarqandda buyuk allomalarimiz merosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya qachon bo‘lib o‘tdi?
2. Mirzo Ulug‘bek olimlik martabasining benihoya buyuk ekanini qachon his etgan?
3. Ushbu shaharlar ichidan Alisher Navoiy haykali qo‘yilgan shaharlarni ajratib ko‘rsating.



4. Ma‘naviyatli odamni ma‘naviyatsiz odamdan qanday farqlash mumkin?
5. Ma‘naviyatni nega daryoga qiyoslaymiz?



## MILLIY QADRIYATLARIMIZ

Aziz o‘quvchi, inson o‘ziga yaqin, chin dildan mehr qo‘ygan odamlarni qalin do‘st, qadrdon deb bilganidek, dunyodagi xalqlar ham, hayotining ma‘no-mazmuniga aylanib ketgan urf-odat, an‘ana va marosimlarni, bayramlarni, til, din, adabiyot va madaniyat namunalari qadriyat deb biladi.



*Qadriyat «qadr» so‘zidan olingan bo‘lib, necha asrlardan buyon inson tomonidan qadrlanib, taraqqiyotga xizmat qilib kelayotgan odat, rasm-rusum, an‘analarni bildiradi.*

Har bir xalqning milliy qadriyatlari uning o‘zligi timsoli hisoblanadi. Jumladan, bizning go‘zal milliy qadriyatlarimiz ham. Masalan, Navro‘z bayramini olaylik. Bu bayram xalqimiz o‘troq hayotni boshlagan qadim davrlardan buyon yashab kelmoqda.



*«Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o‘tkazadigan Navro‘z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko‘p ming yillik milliy qiyofamiz, oliyjanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo‘lib kelmoqda»<sup>1</sup>.*



*«Navro‘z» forscha so‘z bo‘lib, yangi kun degan ma‘noni bildiradi.*

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 35-bet.



### Milliy bog'da Navro'z bayrami

Sobiq sho'ro tuzumi davrida boshqa qadriyatlarimiz qatori Navro'z ham taqiqlandi. Ana shu zamonda ayrim rahbarlar «zararli», «diniy sarqit» degan bo'lmag'ur ayblovlar bilan Navro'zga qarshi kurashib, sumalak to'la qozonlarni ag'darib tashlagani va shunga o'xshash har xil bema'ni ishlarni amalga oshirgani haqida sizga keksa avlod vakillari ko'plab misollarni aytib berishi mumkin.

Bu gaplar, ehtimol, sizdek bugungi yoshlar uchun xuddi afsonadek tuyular. Lekin bundan 30–35 yil oldin shunday holatlar xalqimiz hayotida oddiy holga aylangan edi. Faqat istiqlol bunday salbiy hodisalarning barchasiga barham berdi. Navro'z bayrami ilgari hech qachon bugungidek, yurtimizdagi 130 dan ziyod elu elat vakillari, xorijiy mehmonlar, elchilar ishtirokida keng nishonlanmagan.

Har yili mamlakatimiz poytaxtidagi O'zbekiston Milliy bog'ida bo'ladigan Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantanali bayram shodiyonasi sun'iy yo'ldosh orqali dunyoning ko'plab mamlakatlarida ko'rsatiladi.



**Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2010-yil 21-mart sanasi Xalqaro Navro‘z kuni deb e‘lon qilindi va bugungi kunda bu bayram dunyo miqyosida keng nishonlanmoqda.**

Xalq hayotida shunday qadriyatlar bo‘ladiki, ular millatning o‘zi bilan birga shakllanadi va uning asosiy belgilaridan biriga aylanadi. Til – har bir millatning ana shunday bebaho qadriyatidir. O‘zbek tili ham millatimiz bilan ming yillar davomida birgalikda shakllanib kelgan. Xalqimizning boshiga tarixda qanday og‘ir sinovlar tushgan bo‘lsa, tilimiz ham bundan benasib qolmagan. Dushmanlar yurtimizga hujum qilib, yerimizni bosib olgan davrlarda asosiy milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan tilimiz ham taqiqlangan, kamsitilgan. Bosqinchilar ona tilimizda erkin gapirishga yo‘l bermagan. Xalqimiz erkin va ozod bo‘lib, o‘z yeri, o‘z taqdiriga egalik qilib yashagan kezlarda tilimiz ham o‘z qaddini tiklab, boyib, rivojlanib borgan. Masalan, arab va mo‘g‘ul istilosidan keyin o‘zbek tilining jamiyat hayotidagi mavqeyi pasayib ketgan edi. Temuriylar davlatchiligi davrida xalqimizning sha‘ni, qadr-qimmatini bilan birga tilimizning nufuzi va obro‘-e‘tibori ham qayta tiklandi.

Bu holni millatimiz ma‘naviyatining yana bir muhim belgisi bo‘lmish betakror me‘moriy obidalarimiz sobiq sovet davrida qanchalik vayron qilingani misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Yurtimizda sho‘rolar hukmronlik qilgan davrda masjid va madrasalar buzilgan, ularning omon qolganlari esa omborxonaga aylantirilgan. Aziz-avliyolarimizning qabrlari oyoqosti qilingan, ularning nomlari, o‘lmas merosi xalqimizdan yashirilgan. Hozirgi vaqtda har tomonlama obod qilinib, yurtimiz va butun dunyodan ming-



**Buxoro. Bahouddin Naqshband yodgorligi**

minglab insonlar kelib ziyorat qiladigan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband yodgorlik majmualari bir paytlar mutlaqo qarovsiz qolib ketgan edi.

Bugungi kunda yurtimizning qaysi go'shasiga borsangiz, buyuk bobolarimiz xoki yotgan muqaddas qadamjolarini, ularning obod va fayzli maqbaralarini, so'lim bog'-rog'larni, xotira xiyobonlarini, zamonaviy litsey va kollejlarni, ravon yo'llarni ko'rasiz. Odamlarimiz o'zlarining tilida bemalol gaplashadi, milliy bayramlarimizni birgalikda keng nishonlaydi, diniy ma'raka va marosimlarga bemalol borib, kerakli rasm-rusumlarni ado etadi. Yurtdoshlarimizning har yili muqaddas Ka'ba ziyoratiga – haj va umra safarlariga, dunyoning boshqa mamlakatlariga ilm olish, ishlash, savdo-sotiq qilish, sayohat va dam olish uchun borib kelayotganini yaxshi bilamiz.

Vaholanki, sovet tuzumining Stalin boshqargan davrida kolxozchilarga, ya'ni qishloq aholisining aksariyatiga chetga chiqish u yoqda tursin, hatto, shaharga borishga ruxsat berilmas, ularning pasporti ham yo'q edi. Agar o'sha zamonlarda xalqimizning asosiy qismi qishloqlarda yashagani va majburan kolxozlarga a'zo qilinganini hisobga olsak, ularning oddiy insoniy huquqlardan mahrum bo'lib, qaramlikda yashaganini tasavvur qilish mumkin. Chunki qonunlar, milliy qadriyatlar amal qilmaydigan hayot zulm va zo'ravonlikka ko'r-ko'rona itoatdan, ma'nisiz umr kechirishdan iborat bo'lib qoladi.

Milliy qadriyatlar odamning qadr-qimmatini, milliy g'ururini oshiradi, hayotiga ma'no-mazmun bag'ishlaydi. Uning qadr so'zidan olingani ham bejiz emas.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Qadriyat deb nimaga aytiladi?
2. Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
3. Milliy qadriyatlar qanday sharoitda rivojlanadi?
4. Siz ko'proq qaysi milliy qadriyatlarimizni yoqtirasiz?
5. Sobiq sho'ro davrida nima uchun milliy qadriyatlarimiz toptaldi?



6. Rasmlardagi bolalar qanday mashgʻulotlar bilan band ekani haqida gapirib bering.



**«Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» mavzusidagi  
amaliy mashgʻulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 18–20-betlar.

2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 108–112-betlar.

3. Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. Toshkent, «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2002-yil, 72–73-betlar.

4. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. Toshkent, «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2008-yil, 16–18-betlar.

5. A. Ibrohimov. Yorugʻlugʻ. Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil, 235–238-betlar.



## UMUMBASHARIY QADRIYATLAR

Aziz o‘quvchi, milliy qadriyatlarning rivojlanishi, yangicha ma‘no-mazmun bilan boyishida ularning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib borishi muhim o‘rin tutadi.



*Butun insoniyat hayoti uchun qadrli, ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar umumbashariy qadriyatlar deyiladi.*

Agar milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga teran nazar solsak, ular qadim-qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan bo‘lgan doimiy muloqotlar natijasida boyib, takomillashib borganini ko‘ramiz. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab karvonlar tinimsiz qatnab turgan davrlarda ota-bobolarimiz turli xalqlarning madaniyati, urf-odat va an‘analari, taraqqiyot borasidagi yutuqlaridan bahramand bo‘lganlar. Shuning uchun yurtimizning qadimiy zaminida zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va islom madaniyatiga taalluqli bo‘lgan turli yodgorliklar, osori atiqalar ko‘p uchraydi. Ko‘hna diyorumizda kechgan buyuk sivilizatsiya natijalari, xalqimizning boshqa millat va elat, din vakillari bilan ahillikda yashab kelganining amaliy tasdig‘i sifatida ularning barchasi biz uchun qadrlidir.



*Zardushtiylik – olovga sig‘inishni targ‘ib etadigan, Zardusht tomonidan asos solingan otashparastlik ta‘limoti.*

*Buddaviylik – xalq orasida «Budda» – «haqiqat najotkori» deb atalgan shahzoda Gaytama asos solgan diniy-falsafiy ta‘limot.*

*Nasroniylik xristianlik dini va ta‘limotini bildiradi.*



***«Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta‘bir joiz bo‘lsa, tarix va***



***hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni – butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda»<sup>1</sup>.***

Har bir milliy qadriyat zahirida umumbashariy g‘oyalar, orzu-intilishlar mujassam bo‘ladi. Masalan, tabiatga mehr, ona zamin ne‘matlaridan bahramand bo‘lish, ularni asrab-avaylash; bahorni, quyoshli yorug‘ kunlarni shod-u xurramlik bilan kutib olish dunyodagi barcha xalqlar hayotida alohida o‘rin tutadi. Ular Navro‘z bayramining ma‘no-mazmuniga ham chuqur singib ketgan. Shuning uchun ham bu bayramimiz dunyodagi barcha millat va elat vakillarida katta qiziqish uyg‘otadi.

Shu bilan birga, faqat bizning xalqimizga xos bo‘lgan go‘zal qadriyatlar borki, betakror milliy qiyofamizni namoyon etishda ular asrlar davomida eng muhim fazilat bo‘lib kelmoqda.



***«Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma‘no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboraiarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo»<sup>2</sup>.***

Bunday xususiyatlarni qadrlash milliy o‘zligimizni, dunyodagi boshqa millat va elatlarga o‘xshamaydigan buyuk xalqning farzandi ekanimizni anglashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 10-bet.

<sup>2</sup> O‘sha asar, 8-bet.

Bugungi kunda tinchlik, jahon xalqlarining taraqqiyoti va farovonligi yoʻlida hamkorlik qilish, oʻzaro doʻstlik, hamjihatlik, ona sayyoramizni asrab-avaylash; har bir inson, xalq hamda millatning haq-huquqlarini hurmat qilish, xalqaro madaniy anjumanlar, sport musobaqalari eng muhim umumbashariy qadriyatlarga aylanib bormoqda.

Bizning mamlakatimizda oʻtkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, italyan operasiga bagʻishlangan festival, xalqaro foto biyenallilar, turli ilmiy-amaliy anjumanlar, sport musobaqalari xalqimizning bugungi kunda ham umumbashariy qadriyatlar rivojiga katta hissa qoʻshayotganidan dalolat beradi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ushbu rasmlarda milliy va umumbashariy qadriyatlar qanday aks ettirilgan?



1



2



3



4

2. Qaysi soʻzlarimizni boshqa tillarga tarjima qilish qiyin va nima uchun?
3. Yoqimli chet el musiqasini eshitganda tarjimon kerakmi?
4. Jahon yozgi olimpiadasi oʻyinlarini umumbashariy qadriyatlar qatoriga qoʻshish mumkinmi?
5. «Sumalak» soʻzining maʼnosini kattalardan soʻrab biling.
6. Navroʻzning birinchi kuni qaysi oyning qaysi kunidan boshlanadi?

### **«Navroʻz sayli» mavzusidagi amaliy mashgʻulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. Toshkent, «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 35-bet.
2. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil, 237–238-betlar.

## BIZ – O‘ZBEKISTON FUQAROSIMIZ

Aziz o‘quvchi, e’tibor berganmisiz, ota-onangiz yoki qarindoshlaringiz chet davlatga bormoqchi bo‘lsa, o‘zi bilan albatta pasportini oladi. Chunki pasport insonning fuqaroligini tasdiqlaydigan hujjatdir. Odamning fuqaroligi esa qaysi davlat yoki xalqqa mansubligini, uning o‘sha davlat himoyasida ekanini, o‘z yurtiga munosib bo‘lish majburiyatini bildiradi. Shuning uchun o‘z davlatining fuqarosi bo‘lish kishiga katta g‘urur va iftixor baxsh etadi.



*«Fuqaro» so‘zi grajdanlik ma’nosini anglatadi. Grajdanin lotincha so‘z bo‘lib, huquqiy jihatdan biror-bir davlatga mansublikni bildiradi.*

Qadimda fuqaro so‘zi o‘rnida *tabaa*, *raiyat* kabi so‘zlar ham ishlatilgan. Ota-bobolarimiz o‘zlari haqida gap ketganida, kamtarlik bilan «faqir-u haqir», «faqiringizni afv etgaysiz», «faqirlik-da, bilmay qolib-miz» kabi iboralarni ishlatganlar. Bu iboralarda o‘zini boshqalar oldida burchdor deb bilish ma’nosi ham bor.

Biz – O‘zbekiston davlatiga mansubmiz va buni e’tirof etar ekanmiz, har safar qalbimiz quvonchga to‘ladi. Chunki, avvalgi suhbatlarimizda aytilganidek, O‘zbekiston dunyoda qiyosi yo‘q go‘zal va betakror mamlakatdir. Bunday Vatanda tug‘ilish, uning bebaho ne’matlaridan bahramand bo‘lish hammaga ham nasib qilavermaydigan ulkan saodatdir.



**O‘zbekiston fuqaroligining huquq va burchlari mamlakatimiz Konstitutsiyasida, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan.**



Fuqarolik hissi Vatanimiz farzandlarini birlashtiradi, ahil va inoq qiladi. Bunday hamjihatlikning ahamiyatini Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta’kidlaydi.



«Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini eng avvalo O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo‘lgan «mo‘jaz vatan»ning, tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo‘rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga xalaqit beradi.

Biz Vatan tuyg‘usini mana shunday yaxlit holda, ya’ni dunyoda yagona o‘zbek millati bor, xorazmlik, farg‘onalik, surxondaryolik o‘rtasida hech qanday milliy farq yo‘q, ularning barchasi o‘zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodimizni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 90–91-betlar.



O‘zining fuqarolik burchini chuqur his qilgan odam mamlakat qonunlariga qat’iy amal qiladi, qonunlarning har bandida xalqning irodasini ko‘radi. Shu bois haqiqiy fuqarolik hissi bilan yashagan odam o‘z xalqi va Vatanga nisbatan qilingan nohaqlikka aslo chidab turolmaydi.

Fuqaro so‘zi Vatanning chin farzandi, fidoyi inson ma’nolarini ham anglatadi. Insoniyat tarixida o‘z fuqarolik burchini hayotining ma’no-mazmuni deb bilgan, ona Vatanga munosib bo‘lish yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan zotlar ko‘p bo‘lgan.

Siz jasur fransuz qizi Janna d’Ark haqidagi kitoblarni o‘qigan, filmlarni ko‘rgan bo‘lishingiz mumkin. Uni orleanlik qiz deb ham ataydilar. U yosh bo‘lishiga qaramasdan, Orlean shahrini inglizlardan ozod qilishga, taxtdan chetlashtirilgan fransuz qirolini o‘z o‘rniga tiklashga qaror qiladi. Uning qalbida jo‘sh urgan fuqarolik hissi, vatanparvarlik tuyg‘usi shunga da’vat etadi. U akalari bilan birga yurtga sodiq insonlarga bosh bo‘lib, dushmanga qarshi mardona jang qiladi va Orlean shahrini ozod etadi.

Bu jasoratli qizning xalq ichida obro‘-e’tibori ortib borayotganidan sarosimaga tushgan yov lashkarboshilari va mutaassib din peshvolari uni jodugarlikda ayblab, cherkov nomidan sud qilib, o‘tda yondirishadi.

Janna d’Arkning buyuk jasorati siz yaxshi biladigan To‘maris momomizning qahramonligiga o‘xshab ketadi.

Massagetlar qabilasining boshlig‘i bo‘lgan To‘maris Eron shohi Kirning kuchli lashkariga qarshi jang qiladi. Kir ochiq urush qilishdan qo‘rqib, hiyla ishlatadi. To‘marisning o‘g‘lini mast qilib, keyin asir oladi. Bundan g‘azabga to‘lgan To‘maris makkor yovni ochiq jangga chaqiradi. Qaqshatqich urushda To‘maris dushman ustidan g‘alaba qozonadi.

Bunday misollar, millati, tili va dinidan qat’i nazar, dunyodagi barcha insonlarning muqaddas tuyg‘ulari o‘zaro o‘xshash ekanini ko‘rsatadi.



**Davlat o‘z zimmasiga fuqarolarning haq-huquqlari, hayotining daxlsizligini ta‘minlash bo‘yicha muayyan majburiyatlarni oladi. Shuningdek, fuqarolar ham davlatga xizmat qilish, uning mustaqilligi, moddiy va ma‘naviy boyliklarini himoya qilish bo‘yicha tegishli majburiyatlarga ega bo‘ladi.**



**Ongli fuqaro nafaqat o‘z manfaati yoki o‘zi mansub bo‘lgan guruh, toifa manfaatini, balki xalq va Vatan manfaatini ko‘zlab yashaydigan fuqarodir.**

Bugungi kunda biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati, avvalo ongli fuqarolarga tayanadi. Ongli fuqaro o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonib harakat qiladi. Bu darajaga yetish uchun inson yoshlikdan ko‘p o‘qishi, irodasini tarbiyalab borishi lozim. Masalan, katta bo‘lib, yurtimizda o‘tadigan saylovlarda ishtirok etsangiz, jamoat ishlarida faol qatnashsangiz, qonun talablarini qat‘iy ado etsangiz, ongli fuqarolik fazilatlarini namoyon etgan bo‘lasiz.



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Fuqarolik hissi deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik tuyg‘usi bilan yashab, qahramonlik ko‘rsatgan insonlardan kimlarni bilasiz?
3. Biz qurayotgan jamiyat nima uchun ongli fuqarolarga tayanadi?
4. Ongli fuqaro bo‘lish uchun nima qilish zarur?

5. Ushbu rasmlarda tasvirlangan qaysi insonlarni ongli fuqaro deyish mumkin?



### **«Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» mavzusidagi amaliy mashgʻulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. Toshkent, «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2013-yil, 90–91-betlar.

2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 6–12-betlar.

3. A. Ibrohimov. Yorugʻlugʻ. Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil, 91–95-betlar.

4. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida. Toshkent, «Maʼnaviyat» nashriyoti, 2008-yil, 104–120-betlar.



## VATANPARVARLIK

Aziz o‘quvchi, har bir inson ona yurtiga bo‘lgan muhabbati va sadoqatini turli shakllarda ifoda etadi. Kimdir sidqidildan mehnat qilib, Vatanning moddiy va ma’naviy boyliklarini oshirishga harakat qiladi. Kimdir Vatan sarhadlarida tun-u kun sergak turib, uning har qarich yerini ko‘z qorachig‘idek asraydi. Bularning barchasi vatanparvarlik deb ataladigan aziz va noyob tuyg‘uning amalda namoyon bo‘lishidir. Odam o‘z yurtining dard-u tashvishi, shodlig-u quvonchi bilan hamisha hamnafas yashasa, hatto, Vatan uchun jonini ham fido qila olsa, vatanparvarlik shunchaki tuyg‘uga emas, yuksak insoniy fazilatga aylanadi.



*Vatanparvarlik deb, o‘z yurtini sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish, uning mustaqilligi, tinchligi va taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashashga aytiladi.*



**Vatanni haqiqiy vatanparvar farzandlar dunyoga tanitadi. Vatan tuprog‘i shunday jonkuyar insonlar tufayli ulug‘ va muqaddas bo‘ladi.**

O‘ylab ko‘ring, Oy va boshqa sayyoralarda ham tuproq bor. Lekin odam yashamagani, hozircha hech kim vatan deb bilmagani uchun u yerlarni aziz va muqaddas deb aytoilmaymiz.



**Vatanparvarlik Vatan tuyg‘usini anglashdan boshlanadi. Bu tuyg‘u insonni Vatan manfaatlari yo‘lida jasorat va qahramonlik ko‘rsatib yashashga undaydi.**

Dunyoda Vatanning ozodligi, ravnaq topishini o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb bilgan insonlar ko‘p bo‘lgan. Aynan ana shunday insonlar tufayli Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik fazilati odamzot hayotida eng buyuk qadriyatlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining birinchi Prezidenti Jorj Vashington XVIII asrda Shimoliy Amerikadagi ozodlik harakatlariga boshchilik qiladi.

O‘sha paytda Amerika Yevropadagi yirik davlatlarga nisbatan ancha qoloq edi. Bu yerda muntazam armiya shakllanmagan edi. Shunday bir sharoitda har tomonlama yaxshi qurollangan Angliya armiyasiga qarshi kurash olib borish oson emasdi. Lekin Vatan ozodligi va mustaqilligini muqaddas deb bilgan Jorj Vashington murakkab vazifani amalga oshirishga qat’iy bel bog‘laydi – ozodlik harakatiga rahbarlik qiladi. Dushman son jihatdan, harbiy ta’minotiga ko‘ra bir necha barobar ustun bo‘lishiga qaramasdan, Jorj Vashington boshchiligidagi vatanparvar kuchlar oxir-oqibat g‘alaba qozonadi. 1782-yili Angliya AQShning mustaqilligini tan oladi.

Vatanparvarlik borasida bizning buyuk bobolarimiz ham har tomonlama ibratga munosib meros qoldirganlar.

Masalan, jasur ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi o‘n ikki yil davomida uzluksiz kurash olib boradi. Yov yurtimizga bostirib kirgan paytda Jaloliddin yigirma yoshli navqiron yigit edi. Uning otasi Alouddin Muhammad Xorazmshoh uzoqni o‘ylamasdan ish tutgani uchun mamlakatning harbiy qudrati susayib, kuchlar bo‘linib ketadi, buning natijasida uning qo‘shini mag‘lubiyatga uchraydi. Shohning o‘zi Kaspiy dengizidagi orollardan biriga borib jon saqlashga majbur bo‘ladi.

Shafqatsiz janglarda ishtirok etolmasligini his qilgan Xorazmshoh to‘ng‘ich o‘g‘li Jaloliddinni valiahd, ya’ni taxt vorisi qilib tayinlaydi. Mard va bahodir Jaloliddin o‘z ukalari va 70 nafar otliq askari bilan yov qurshovida turgan Xorazmning qadimiy poytaxti – ko‘hna Gurganjga kirib keladi. Uni ko‘rib, xalqning ruhi ko‘tariladi. Jaloliddin Gurganj va Xuroson o‘rtasidagi sahroda o‘zining 70 nafar askari bilan dushmanning 700 kishilik qo‘shiniga duch keladi va ularni tor-mor

keltirib, hozirgi Afg'oniston hududidagi G'azni shahri tomon chekinadi. Chingizxon uning ortidan 45 ming kishilik qo'shin yuboradi. Jaloliddinning safiga ham vatanparvar yigitlar kelib qo'shiladi. Parvon degan joyda ikki o'rtada qaqshatqich jang bo'ladi. Jaloliddin qo'shini o'zidan bir necha barobar ko'p bo'lgan, yaxshi qurollangan dushman ustidan g'alaba qozonadi.

Shundan so'ng Chingizxon bu yengilmas sarkarda bilan shaxsan o'zi kurash olib bormoqchi bo'ladi. Sind, ya'ni «Hind daryosi bo'yidagi jang» degan nom bilan tarixda qolgan bu to'qnashuv 1221-yil 24-noyabrda bo'ladi. Chingizxon son-sanoqsiz askari bilan qora quyundek yopirilib kelar edi. Lekin yosh sarkarda o'zini yo'qotmasdan, mardona jangga otirladi. Dushman uning o'ng va so'l qanotidagi kuchlarni yorib o'tadi.

Jaloliddin bor-yo'g'i 70 nafar saralangan askari bilan o'rtada qolib ketadi. U sher kabi goh o'ngga, goh so'lga tashlanib, yov lashkarini yer bilan yakson qiladi. Mo'g'illar esa uning atrofini o'rab olgan holqa tobora siqib kelaveradi.

Aytishlaricha, o'sha paytda mard va shijoatli Movarounnahr farzandining ruhini sindirish uchun Chingizxon uning 7–8 yasharlik o'g'lini tutib olib qatl ettiradi. Jaloliddin dushman qo'liga asir tushmaslik uchun so'nggi soniyalarda oilasining oldiga kelib, o'z farzandlari bilan xayrlashadi. Keyin yana yovga tashlanib, ularni chekinishga majbur qiladi va qirg'oqqa borib, pishqirib oqayotgan daryoga ot soladi va undan shamoldek yelib o'tib ketadi. O'sha zahotiy oq qirg'oqqa yetib



**Urganchdagi Jaloliddin  
Manguberdi haykali**



kelgan Chingizxon uning shahd-u shiddatiga qoyil qoladi va o'g'illariga qarab bunday deydi: «Haqiqiy o'g'il mana shunday bo'lmog'i lozim».

Jaloliddin Manguberdiga bunchalik g'ayrat-shijoat va jasorat baxsh etgan kuch Vatan tuyg'usi, ona yurtga bo'lgan muhabbat, xalqning unga nisbatan ishonchi edi. O'n ikki yillik hayotini muttasil jangi jadallar bilan o'tkazgan bu buyuk sarkarda umrining so'nggi lahza-larigacha o'z e'tiqodiga sodiq qoldi. Shu bois uning ozodlik yo'lidagi faoliyati afsona va rivoyatlarga, muborak nomi esa mardlik va jasurlik timsoliga aylandi. Mamlakatimizda «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etilgan. Bugungi kunda yuksak vatanparvarlik fazilatlari bilan el-yurt hurmatini qozongan yurtdoshlarimiz ana shu orden bilan taqdirlanadi.

1999-yili Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Xorazm viloyatining markazi bo'lgan Urganch shahrida uning muazzam haykali barpo etildi.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Vatanparvarlik insonning qanday harakatlarida namoyon bo'ladi?
2. Vatanparvarlik tuyg'usi qachon fazilatga aylanadi?
3. Bu tuyg'u qanday tarbiyalanadi?
4. Buyuk vatanparvar ajdodlarimiz haqida gapirib bering.
5. Ushbu haykallarda qaysi buyuk ajdodlarimizning siymolari aks ettirilgan?



*Amaliy mashg'ulot*

**O'ZBEKISTONNING FIDOYI  
FARZANLARI**

Insonda ma'naviy jasorat tuyg'usi bo'ladi. Aynan ana shu tuyg'u uning butun vujudini harakatga keltirib, qahramonlikka undaydi.



**«Xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda»<sup>1</sup>.**

Yurtimizning bugungi fidoyi, qahramon farzandlari haqida ko'p gapirish va misollar keltirish mumkin. Chunki xalqimizning mustaqillikka erishganining o'zi ma'naviy jasorat mahsuli bo'lgani kabi, istiqlol yillaridagi barcha yutuq va marralarimiz ham ana shunday ulug' fazilat natijasidir.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, davlat rahbarining vatanparvarlik fazilatlari xalq, millat uchun nafaqat ibrat maktabi, balki ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omili hamdir.

Hozirgi kunda yurtimizda mingminglab vatanparvar yoshlar yetishib chiqmoqda. Ayniqsa, davlatimiz sardhlarini terrorchi guruhlardan himoya qilishda mardlik va matonat ko'rsatib, qahramonlarcha halok bo'lgan botir yigitlarning jasoratini el-yurtimiz hech



<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 169-bet.

qachon unutmaydi. Bu jasorat yoshlarimizning ajdodlarimizga xos vatanparvarlik an'analarini sadoqat bilan davom ettirayotgani, ona yurt, uning tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi bugungi navqiron avlod uchun ham eng muqaddas qadriyat bo'lib qolayotganini ko'rsatdi. Mahmudjon Jalilov, Alisher Salimov, Boburjon G'aniyev, Sayyor Sa'dinov, G'afurjon Rajabov, Ma'rufjon Rajabov, Elomon Otajonov, Abduhalim Toshqulov, Yunus Oxunov, Ulug'bek Barnoyev, Doniyor Tojiboyev, Qahramon Madalimov singari yosh jangchi va ofitserlarning nomi Vatan himoyasi yo'lida jon bergan qahramon ajdodlarimiz qatoridan joy oldi. Bu yigitlarning aksariyati hali hayot zavqiga to'ymagan, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib ulgurmagan edi. Lekin ular yurt mustaqilligini, elimiz tinchligini hamma narsadan aziz bilib, o'zlarini ana shu oliy maqsadga fido qildilar.

Leytenant Boburjon G'aniyevning onasi Munavvar opaning Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan o'g'li haqida aytgan gaplari farzandidan bevaqt judo bo'lgan ota-onalar qalbidagi muqaddas yurtimiz zaminiga bo'lgan muhabbat ifodasidir.



**«O'g'limning umri zoye ketmadi. Men unga bergan oq sutimdan roziman. Chunki bolam ko'cha-ko'yda bezorilik qilib, birov bilan mushtlashib olamdan o'tgani yo'q. U Vatanini, xalqini himoyalash yo'lida jonini fido qildi»<sup>1</sup>.**



<sup>1</sup> «Vatan fidoyilari». –T.: «Ma'naviyat», 2000-yil, 10–11-betlar.

Bugungi kunda ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida nufuzli musobaqalar, ko‘rik-tanlovlar va festivallarda munosib ishtirok etib, yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarayotgan yoshlar ham haqiqiy vatanparvarlardir. Shuningdek, o‘qishda, ishda, harbiy xizmatda, oila qurishda boshqalarga namuna bo‘layotgan yoshlarni ham ularning qatoriga qo‘shish mumkin.



**«Har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu»<sup>1</sup>.**

Vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda ko‘p o‘qish, qishloq va mahalla hayotida faol ishtirok etish, odamlar bilan muloqot qilish, ularni o‘rganish ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki inson shular orqali o‘z yurtini yanada yaxshiroq bilib oladi, unga bo‘lgan muhabbati ortadi. Shuning bilan birga, sayohat qilish, Vatanning shahar va qishloqlarini o‘rganish, dunyo kezish ham insonga olam-olam taassurot beradi, uning qalbini go‘zallashtiradi, tasavvurlarini kengaytiradi. Axir, xalqimiz: «Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra», – deb bejiz naql qilmaydi. Tasavvur qilib ko‘ring, yarim enlik to‘shanchi – bo‘yra qayoqda-yu, qanchadan-qancha shahar-qishloqlar, vodiylar osha oqib o‘tadigan daryo qayoqda! Albatta, daryodek toshib, hayqirib yashash insonni ulug‘laydi.



***«Ona yurtga, ona zaminga sadoqat bilan, kimning avlodi ekanini xayolidan chiqarmasdan, hayotda aniq maqsad va e‘tiqod bilan yashaydigan harbiy inson Qurolli Kuchlarimizning eng ishonchli tayanchi va suyanchi, boyligi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi»<sup>2</sup>.***

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 165-bet.

<sup>2</sup> **Islom Karimov.** Vatanga qasamyod, mardlik va jasorat madhiyasi. –T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2010-yil, 6-bet.

Vatanparvarlik insonni qanchalik yuksakka ko'tarsa, Vatanga xiyonat shuncha xor-u zor etadi. Vatanga xiyonat otaga, onaga xiyonat qilish bilan barobar. Dunyo dunyo bo'libdiki, hali o'z eli va yurtiga xiyonat qilgan odamning ishi o'nglanganini hech kim ko'rgan emas.



**Vatan bor ekan, vatanparvarlik eng oliy fazilatlardan biri bo'lib qolaveradi va ana shu sharafga munosib farzandlar ham voyaga yetaveradi.**


Vatanparvarlik borasida avvalo Vatanning o'zi buyuk murabbiy hisoblanadi. Uning saxovatli zamini, betakror tabiati, bir-biridan go'zal shahar va qishloqlari, shonli tarixi, boy madaniyati, oriyatli, mehnatkash, sodda va oqko'ngil odamlari, ajdodlar xotirasi, avlodlar baxti – barcha-barchasi insonni o'zi tug'ilgan zamanga bog'lab turadi, shu tuproqning fidoyi va jonkuyar farzandi bo'lishga undaydi.

Ona O'zbekistonimiz – ana shunday beqiyos o'lka. Binobarin, biz uchun unga munosib farzand bo'lishdan ortiq baxt-u saodat yo'q.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Yurtimizning bugungi kundagi fidoyi farzandlari haqida gap ketganida avvalo kimni tilga olamiz?
2. Rasmlarga qarab, turli sohalardagi vatanparvar yoshlar haqida gapirib bering.



3. Mashhur sportchi yoshlardan kimlarni bilasiz?
4. Siz sinfdoshlaringizdan kimlarni haqiqiy vatanparvar deb hisoblaysiz va nima uchun?
5. Kelgusida kim bo'lmoqchisiz va Vatanimizga qanday xizmat qilmoqchisiz?

## VATANNI ULUG‘LASH

Aziz o‘quvchi, ona Vatanimiz tug‘ilgan kunimizdan boshlab bizga bor mehrini beradi. Uning bag‘rida sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Vaqti kelib, biz yetuk inson bo‘lganimizda Vatan oldidagi qarzimizni uzish, unga sadoqat bilan xizmat qilish asosiy burchimiz va vazifamizga aylanadi.



**Yoshlar hamma zamonlarda ham millat suyanchi, xalqning tayanchi bo‘lib kelgan.**

Xalqimiz «Yoshlar – Vatan kelajagi» deydi. O‘zining kelajagini o‘ylagan har qanday davlat, avvalo, yoshlar tarbiyasiga katta e‘tibor beradi. Yaponiya davlati Ikkinchi jahon urushida mag‘lubiyatga uchrab, juda ko‘p zarar ko‘rgan edi. Uning Xirosima va Nagasaki degan shaharlariga tashlangan atom bombasining fojiali oqibatlari hozirgacha bu yurt odamlarini bezovta qilib kelmoqda. Shunday og‘ir va murakkab ahvolga tushib qolganiga qaramasdan, bu davlat urushdan keyin yoshlar tarbiyasiga katta e‘tibor berdi. Birinchi galda ta‘lim tizimi isloh etildi. Buning natijasida yoshlar eng zamonaviy bilimlarni egallab, o‘z yurtini jahonda yetakchi o‘rinlarga olib chiqdi. Millionlab vatanparvar yoshlarning kuch-g‘ayrati va fidoyiligi bilan bugungi kunda Yaponiya dunyodagi eng qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Yoki mamlakatimiz tarixining o‘tgan asr boshlaridagi davriga e‘tibor beraylik. O‘sha paytda qalbi va ongi ma‘rifatga intilish tuyg‘usi bilan to‘lgan yurtimiz yoshlari taraqqiyot g‘oyalari o‘rtaga tashlab, gazeta-jurnallar nashr ettirish, maktablar ochish, teatr tomoshalari qo‘yish, xayriya jamiyatlari tuzish kabi ezgu ishlar bilan shug‘ullangan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy,





**Abdulla Avloniy**

Abdulla Avloniy kabi vatanparvar bobolarimiz ilk asarlarini yozib, ma'rifatchilik faoliyatini boshlaganida hali yosh o'spirin edilar. Ammo, afsuski, sobiq sho'ro tuzumi ularning oliyjanob intilishlariga yo'l bermadi. Bu zotlarning aksariyati o'sha yovuz tuzum qurboniga aylandi, lekin ularning ibratli ishlari, ezgu an'analari mustaqillik yillarida qayta tiklandi va davom ettirilmogda. Masalan, aynan ana shu ajdodlarimiz asos solgan milliy teatr – bugungi O'zbek milliy akademik drama teatrining 100 yillik yubileyi 2014-yilda mamlakatimizda keng nishonlandi.

Tarixning ana shunday saboqlarini hisobga olgan holda, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda.



***«Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi»<sup>1</sup>.***

Bugungi kunda yurtimiz, xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladigan samarali tizim ishlab chiqilgan. Bu tizimning qonuniy asosini 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, 2004-yili qabul qilingan Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi, sog'lom

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 62-bet.



### **Ma'rifat markazi**

avlodni voyaga yetkazish masalalariga doir Prezidentning ko'plab farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, davlat dasturlari tashkil etadi.

Ayniqsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan, mamlakatimizda mutlaqo yangi ta'lim tizimi joriy etildi. Bu tizim 12 yillik majburiy ta'limni ko'zda tutadi. Ya'ni, yurtimiz bolalari dastlab 9 yil umumta'lim maktablarida o'qiydi, bu bosqichni tugatganidan so'ng uch yillik o'rta maxsus ta'lim bosqichida – o'z xohishi va qiziqishiga qarab, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida tahsil oladi. Bu esa sizdek yoshlar uchun zamonaviy bilimlar, kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni o'rganishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Yangi ta'lim tizimi bo'yicha oliy ta'lim ikki bosqichdan – bakalavriat va magistraturadan iborat bo'ldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tashkil etilgan yangi universitetlar, oliy o'quv yurtlari va o'quv markazlari ham mamlakatimizda shakllangan yangi ta'lim tizimi imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Eng muhimi, bu tizim sizdek yoshlarning erkin bilim olishi, sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun xizmat qilmoqda.



Lekin bugungi kunda Vatanimizning kelajagini ko‘rolmaydigan, uning buyuk davlatlar qatoridan joy olishini istamaydigan kuchlar ham topiladi. Ular avvalo yurtimiz istiqbolini belgilab beradigan yosh avlodni o‘z ta’siriga olmoqchi, shu tariqa mamlakatimiz kelajagiga bolta urmoqchi bo‘ladi. Bunday xavf-xatarlarga xalqaro terrorchilik va ekstremizm, diniy aqidaparastlik, har xil zararli mafkuraviy oqimlar, axloqsizlik, «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi soxta madaniyat namunalari, giyohvandlik, ichkilikbozlik, kashandalik kabi illatlar kiradi.

Hozirgi kunda yoshlarning yo‘lida g‘ov-to‘siq bo‘layotgan salbiy holatlarga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li – bilim va ma’rifatdir. Shuning uchun mamlakatimizda ta’lim sifatini yaxshilashga, yoshlarni mard va barkamol insonlar qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Chunki jahon faqat mard va kuchli, o‘zining iste’dodi, bilim va tajribasiga tayanib yashaydigan insonlarni tan oladi va hurmat qiladi. Shunday darajaga yetish uchun esa tinimsiz o‘qib-o‘rganish, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kuchli bo‘lish lozim.

Siz xalqaro sport olimpiadalarini, boshqa nufuzli musobaqalarni ko‘rganmisiz? Ularda qaysi mamlakatning bayrog‘i ko‘proq ko‘tarilib, davlat madhiyasi ko‘proq jaranglaydi? Qaysi mamlakatning sportchi yoshlari ko‘proq oltin medallarni qo‘lga kiritsa!

Shuning o‘ziyoq mardlari, kuchli farzandlari ko‘p yurtni butun dunyo tan olishi va hurmat qilishini ko‘rsatadi.

Aziz o‘quvchi, shuni esda tutingki, ozod Vatanimizni ulug‘lash uchun barchamiz, avvalo, zimmamizdagi farzandlik burchimizni sidqidildan ado etishimiz zarur. O‘z kasbimizni puxta egallab, amaliy ishimiz bilan ona yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shishimiz lozim. Siz iste‘dodi va mahorati bilan mamlakatimiz nomini dunyoga yoyishga xizmat qilayotgan yoshlarimiz haqida televideniye, radio va gazetalari orqali xabardor bo‘lsangiz kerak. Ayniqsa, xalqaro toifadagi hakam, «O‘zbekiston iftixori» unvoni sohibi



Ravshan Irmatov, og‘ir atletika bo‘yicha jahon chempioni Ruslan Nuriddinov, shaxmat bo‘yicha xalqaro grosmeyster Nafisa Mo‘minova kabi opa va akalaringizning sport sohasidagi faoliyatidan o‘rnak olib, ular kabi Vatanimizni o‘z iste‘dodingiz bilan dunyoga tanitishga intilib yashash sizlar uchun ham asosiy maqsad bo‘lishi kerak.

Odam uchun kindik qoni tomgan qadrdon o‘lkada yashash qanchalik ulug‘ baxt bo‘lsa, uning kelajagini barpo etishda ishtirok etish shunchalik katta sharafdir. Sizning zimmangizda ham ana shunday mas‘uliyatli vazifa borligini hech qachon unutmang.



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nima uchun yoshlar – Vatanning kelajagi, deymiz?
2. O‘z yurti kelajagining bunyodkori bo‘lish uchun yoshlar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
3. Jahon kimni tan oladi va hurmat qiladi?
4. Mamlakatimiz nomini dunyoga yoyishga munosib hissa qo‘shayotgan yoshlardan kimlarni bilasiz?

5. Ushbu rasmlardagi insonlarni taniysizmi? Ular qaysi sohalaridagi yutuqlari bilan bizga o‘rnak bo‘lmoqda?



**«Biz hech kimdan kam bo‘lmaymiz» mavzusidagi  
amaliy mashg‘ulot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 94–96-betlar.

2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 13–16-betlar.

3. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2008-yil, 16–20-betlar.

4. XXI asr: istiqbolimiz timsollari. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 2001-yil.

5. Iqbol Mirzo. Agar jannat ko‘kda bo‘lsa... Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010-yil, 5–8-betlar.





## TA'LIM VA TARBIYA UYG'UNLIGI

Aziz o'quvchi, har qanday yurtning kuch-qudrati, avvalo, uning xalqi va farzandlarining salomatligiga bevosita bog'liq.



*Inson tanasi o'z vazifasini to'liq ado etish quvvatiga ega bo'lsa, uni sog'lom deymiz. Sog'lomlik ikki xil bo'ladi. Birinchisi – jismoniy sog'lomlik, ikkinchisi esa – ma'naviy sog'lomlik.*

Agar odamning jismi ham, ruhi ham sog'lom bo'lsa, to'laqonli inson hisoblanadi va u komil insonga aylanishi mumkin. Buning uchun u jismini ham, ma'naviyatini ham doimiy ravishda chiniqtirib, tarbiyalab borishi lozim. Bunday takomillashuv jarayoni bir umr davom etadi.



*O'zidan qoniqmasdan, doimo oldinga, yetuklik va mukammallikka intilib yashaydigan inson barkamol insondir.*

Demak, komil bo'laman degan inson hamisha ezgulikka intilib yashashi lozim. Bunda uning qanday kasb egasi, qaysi toifa yoki millat vakili ekani muhim emas. Oddiy cho'pon yoki quruvchi bo'laturib, o'z kasbi, halol mehnati orqali shon-shuhrat topgan yuzlab odamlar oramizda ko'p. Yoki dunyo miqyosida san'at, ilm-fan, sport sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan insonlarni bir esga olaylik. Ularning har biri turli millat va elatga, kasb-kor sohasiga mansub. Lekin bu hol ularning insoniy kamolotiga xalal bermaydi, aksincha, yordam berishi mumkin.

Ayniqsa, insonning Vatani va xalqiga bo'lgan muhabbati e'tiqod darajasiga ko'tarilsa, uning fazilatlari yanada ortadi. Komillik darajasiga yetgan insonlar qiyofasida nafaqat ular mansub bo'lgan xalq va Vatani, balki butun insoniyatga xos eng oliyjanob xususiyatlar namoyon



bo'ladi. Masalan, Suqrot, Alisher Navoiy, Shekspir, Mahatma Gandi kabi buyuk zotlar ham o'z xalqining, ham butun insoniyatning munosib farzandlari hisoblanadi. Chunki ularning siyomosida butun bashariyat ahli o'zi orzu qilgan fazilatlarni ko'radi.



**Demak, inson el-yurtiga, odamzotga qancha ko'p foyda keltirsa, shuncha mukammal bo'lib boraveradi.**

Insonning jismi va ruhiyati bir-biri bilan shunchalik bog'liqki, jismdagi kamchilik ruhiyatga, ruhiyatdagi kamchilik esa jismga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun ota-bobolarimiz duo qilganlarida, «Tan-u joning sog' bo'lsin», deya tilak bildiradilar.

Jism va ruhning uyg'unligi ta'lim bilan tarbiya ishini bir butun holda, uyg'un olib borishni talab etadi.



**«Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi — bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»<sup>1</sup>.**

Ba'zida har tomonlama sog'lom tug'ilgan inson noto'g'ri tarbiya oqibatida ham jisman, ham ruhan majruh bo'lib qolishi mumkin.



**Jismning kasalligi tana a'zolarining har xil og'riqlarga duchor bo'lishida ko'rinsa, ruhning xastaligi odamning yolg'onchilik, dangasalik, loqaydlik, johillik, manmanlik kabi yomon odatlarida namoyon bo'ladi.**



**Jism ham, ruh ham doimiy parvarishga muhtoj. Shu bois insonning sog'lom va barkamol rivojlanishida tarbiya bosh mezon hisoblanadi.**

Sog'lom farzand — jamiyatning bebaho boyligi. Chunki inson sog'lom bo'lsagina, iste'dodi, aqli va g'ayrati bilan Vataniga xizmat qila oladi. Shu bois o'z kelajagini o'ylagan jamiyat yosh avlodning jismoniy

<sup>1</sup> **Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 61–62-betlar.



va ma'naviy kamoloti haqida qayg'uradi. Ammo inson voyaga yetib, mustaqil hayotga qadam qo'ygach, o'z taqdiri haqida o'zi bosh qotirishi, ruhiy va jismoniy tarbiyani turmush tarziga aylantirishi zarur.



**Tanni va dilni pok saqlash, sport bilan shug'ullanib, uni chiniqtirish, vaqtida ishlab, vaqtida dam olish, muntazam ravishda tibbiy ko'rikdan o'tib turish, san'at va madaniyat vositalari orqali ruhiyati, ong-u tafakkurini boyitish, yomon ishlardan tiyilib, yaxshi ishlarga bosh qo'shish — bularning barchasi o'zini o'zi tarbiyalashga kiradi. Shu tariqa inson sog'lom turmush tarziga, komillikka yaqinlashib boradi.**



*Sog'lom turmush tarzi deb, zararli odatlardan tiyilib, ilm-ma'rifat, ma'naviyat, sport vositasida o'zini o'zi tarbiyalab boradigan, inson, oila va jamiyatning kamol topishiga xizmat qiladigan hayot shakliga aytiladi.*

Inson o'zini o'zi tarbiyalashi uchun unda kuchli iroda bo'lishi lozim. O'zining kasb-u hunari, iste'dodi bilan katta natijalarga erishgan kishilarning hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning faoliyatida kuchli iroda hal qiluvchi o'rin tutganini ko'ramiz.

Ayniqsa, sportchilarning turli musobaqalarda mardlik va jasorat namoyish etganini ko‘p ko‘rganmiz. Masalan, mashhur o‘zbek bokschisi Rufat Risqiyevning 1974-yili Kubada bo‘lib o‘tgan jahon birinchiligida ko‘rsatgan jasorati diqqatga sazovordir. O‘shanda jasur sportchimiz yarim final bellashuvida qattiq shikastlanadi va bir qo‘li og‘ir jarohatlangan holda final o‘yinida ishtirok etadi. Rufat Risqiyev o‘z yurti, xalqining sha‘n-u g‘ururini o‘ylab, irodasini jamlab, matonat bilan bellashuvni davom ettiradi va nihoyatda kuchli raqibini mag‘lub etadi.

Rufat Risqiyev shu tariqa o‘zbek bokschilaridan birinchi bo‘lib jahon chempioni degan yuksak sharafiga erishadi.

Bunday iroda, ezgu fazilatlar bizlarga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelmoqda. Tarixiy kitoblarda yozilishicha, bir jangda Amir Temur bobomizning oyog‘i va qo‘liga o‘q tegib, og‘ir yarador bo‘ladi. Shunga qaramasdan, jang maydonini tark etmaydi. Aksincha, askarlarining ruhini ko‘tarib, yovga qarshi mardona hujum boshlaydi va oxir-oqibatda o‘z lashkari bilan dushman ustidan g‘alaba qozonadi.

Ulkan iroda, buyuk jasorat namunasini biz yana bir jasur bobomiz Bobur Mirzo hayoti misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ul zotning umr kitobi bo‘lmish «Boburnoma» asarini o‘qib chiqsangiz, 12 yoshidan – Andijon taxtini egallaganidan to hayotining so‘nggi daqiqalarigacha bu inson ma‘naviy jasorat ko‘rsatib yashaganiga ishonch hosil qilasisiz. Bobur Mirzo, Shayboniyxon ta‘qibidan qochib, Xo‘jand tog‘larida sargardon yurgan kezlarida, qahraton qishda daryo suviga bir necha bor sho‘ng‘ib chiqadi. Yaxshisi, bu haqda buyuk bobomizning o‘zidan eshitaylik: **«Ul martabada sovuq edikim, o‘shul ikki-uch kishi bu borada sovuqning shiddatidin o‘lub edi... Bir ariq suyidakim, yoqalari qalin muz to‘ng‘ub edi, o‘rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog‘lamaydur edi, bu suvg‘a kirib, g‘usl qildim<sup>1</sup>. O‘n olti qatla suvg‘a cho‘mdum. Suvning sovuqlig‘i xeyli ta‘sir qildi».**

Odamlar kiyimga o‘ranib ham sovuqdan halok bo‘layotgan bir pallada muzdek suvga o‘n olti karra sho‘ng‘ib chiqish osonmi? Buning uchun insonning tanasi o‘ta kuchli va baquvvat bo‘lishi bilan birga, uning irodasi ham mustahkam bo‘lmog‘i zarur, albatta.

<sup>1</sup> **G‘usl qildim** – cho‘mildim.



Darhaqiqat, taqdirning har qanday sinovlariga bardosh berish, ularni mardona yengib o‘tish, yuksak fazilatlarni namoyon etishni otabobolarimiz hayot sinovlariga tayyor bo‘lishning muhim sharti, deb hisoblaganlar. «Alpomish» dostonining bosh qahramoni Hakimbek – Alpomish o‘z maqsadiga yetguncha qancha sinov va mashaqqatlarga duch keladi. Lekin u hech qachon umidsizlikka tushmaydi. Chunki o‘zining kuch va imkoniyatlariga, irodasiga qattiq ishonadi. Shuning uchun oxir-oqibatda to‘qson alpning ustidan g‘alaba qozonib, Barchinoyini o‘z yurtiga olib ketishga muyassar bo‘ladi.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun juda ulkan ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Prezidentimizning tashabbusi bilan «Sog‘lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg‘armasi, shu nomda jurnal tashkil etildi. Vatanimizning birinchi oliy nishoni ham «Sog‘lom avlod uchun» ordeni deb ataladi. Yurtimizda onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish uchun zamonaviy sog‘lomlashtirish majmualari, shifoxonalar, sport maskanlari barpo etilmoqda. Ayniqsa, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» musobaqalarini o‘z ichiga olgan





uch bosqichli yaxlit tizim shakllangani dunyodagi boshqa mamlakatlarda uchramaydigan noyob hodisadir.

Yurtimizda 2000-yil — «Sogʻlom avlod yili», 2001-yil — «Ona va bola yili», 2008-yil — «Yoshlar yili», 2010-yil — «Barkamol avlod yili», 2014-yil esa «Sogʻlom bola yili» deb eʼlon qilinib, maxsus davlat dasturlari asosida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilgani ham siz kabi yosh avlod vakillari haqida naqadar katta gʻamxoʻrlik koʻrsatilayotganining amaliy ifodasidir.

Yurtimiz yoshlari bunday yuksak eʼtibordan ruhlanib, turli sohalarda dastlabki quvonchli yutuqlarni qoʻlga kiritishmoqda. Masalan, 2014-yili 10 nafar oʻquvchi yirik xalqaro va musiqa festivallarida «gran-pri» deb ataladigan eng yuqori sovrinni, 60 nafari esa birinchi oʻrinni olishga erishdi. Xitoy Xalq Respublikasining Nankin shahrida oʻtkazilgan oʻsmirlar olimpiadasida 28 nafar yosh sportchimiz 4 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza, jami 10 ta medal egasi boʻldi. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida oʻtkazilgan Osiyo oʻyinlarida esa Oʻzbekiston vakillari 9 ta oltin, 14 ta kumush, 21 ta bronza, jami 44 ta medalni qoʻlga kiritishdi.

Aziz oʻquvchi, ushbu darslikda Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch» kitobiga tez-tez murojaat

qilganimiz bejiz emas. Shuni yodda tutingki, bu kitob aynan siz kabi navqiron avlod vakillari uchun yozilgan. Ulg‘ayib, katta bo‘lganingizda bu kitobni o‘zingiz mustaqil o‘qib-o‘rganib, unda bayon qilingan fikr-mulohazalarning ma‘no-mazmunini yanada chuqurroq tushunib, anglab olasiz, deb ishonamiz.



### *Savol va topshiriqlar:*

1. Qanday odamni sog‘lom deymiz?
2. Komil inson bo‘lish uchun nima qilish kerak?
3. Qanday odamni barkamol deyish mumkin?
4. Ta‘lim va tarbiyani nima uchun bir-biridan ajratib bo‘lmaydi?
5. Ushbu rasmlarda tasvirlangan mashg‘ulotlarning qaysi biri jismni, qaysi biri esa ruhiyatni tarbiyalashga xizmat qiladi?



1



2



3



4

6. O‘zini o‘zi tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
7. Mashhur bokschi Rufat Risqiyev qanday qilib jahon chempioni bo‘ldi?
8. Buyuk ajdodlarimizning jasoratlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobi kimlarga bag‘ishlab yozilgan?

### **«Yoshlar — Vatan kelajagi» mavzusidagi amaliy mashg‘ufot uchun adabiyotlar**

1. Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, «Ma‘naviyat» nashriyoti, 2013-yil, 60–64-betlar.
2. Islom Karimov. Vatan va xalq mangu qoladi. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-yil, 126–130-betlar.





### 3. Moddiy va ma'naviy olamni nimaga qiyoslash mumkin?

- A) Ikkita parallel chiziqqa  
 B) Parvozdagi qushning qo'sh qanotiga  
 C) Ikki qo'lning birikishiga  
 D) Ikkita jilg'aning qo'shilishiga

### 4. Pahlavon Mahmud kim bo'lib dong taratgan?

- A) Ulug' hofiz bo'lib  
 B) Usta hunarmand bo'lib  
 C) Qo'li gul me'mor bo'lib  
 D) Mohir kurashchi bo'lib

### «O'TDA YONMAYDIGAN MEROS» MAVZUSI BO'YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Ma'naviy boylikning afzalligi nimada?
2. Qaysi kitob o'n ikki ming qoramol terisiga bitilgan?
3. «Avesto» kitobi, o'tda yondirilsa ham, nima uchun butunlay yo'q bo'lib ketmadi?
4. Ma'rifiy xalqlar moddiy boyliklarini nimaga sarflaydi?
5. Ming yilda bir tug'iladigan alloma deb ta'riflangan buyuk ajdodimiz kim?
6. Ibn Sinoning eng buyuk asari qaysi?
7. Ushbu kitoblarning mualliflari qaysi buyuk ajdodlarimiz ekanini ayting.



### TESTLAR

#### 1. Ma'naviy boylikning afzalligi nimada?

- A) Ko'p joyni olmaydi  
 B) O'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi  
 C) Qo'riqchi kerak emas  
 D) Buzilmaydi, aynimaydi

**2. Ma'rifiy xalqlar moddiy boyliklarini sarflaydigan soha qaysi?**

- A) Qurilish  
B) Ma'naviyat  
C) Savdo  
D) Kasanachilik

**3. Ibn Sinoning eng buyuk asari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) «Buxoro tarixi»  
B) «Metafizika»  
C) «Tib qonunlari»  
D) «Fozil odamlar shahri»

**4. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan so'zlarning soni qancha?**

- A) 21 ming 193 ta  
B) 26 ming 35 ta  
C) 20 mingdan ortiq  
D) 80 mingta

**«MILLIY QADRIYATLARIMIZ» MAVZUSI BO'YICHA  
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. Qadriyat so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. Milliy qadriyatlar qanday shakllanadi va takomillashadi?
3. Navro'z bayrami nimaning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda?
4. Millatning o'zi bilan birga shakllanadigan, uning asosiy belgisi bo'lgan qanday qadriyatni bilasiz?
5. Milliy qadriyatlar qachon rivojlanadi?
6. Quyidagi rasmlarda qanday urf-odat va qadriyatlarimiz aks etgan?



1



2



3



4

**TESTLAR**

**1. «Qadriyat» so'zi qaysi so'zdan olingan?**

- A) Qadrdon  
B) Qadr  
C) Qasr  
D) Qahr

**2. Millatning o'zi bilan birga shakllanadigan qadriyat qaysi?**

- A) Bayramlar  
B) Din  
C) Til  
D) Madaniyat

### 3. Sobiq sho‘ro tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz qanday ahvolda edi?

- A) Taqiqlandi  
 B) Rivojlandi  
 C) Boyidi  
 D) Qayta tiklandi

### 4. 21-mart kuni kirib keladigan bayramimiz qaysi?

- A) Konstitutsiya kuni  
 B) Vatan himoyachilari kuni  
 C) Navro‘z  
 D) Mustaqillik kuni

### «UMUMBASHARIY QADRIYATLAR» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Umumbashariy qadriyatlar deb nimaga aytiladi?
2. Zardushtiylik qanday ta’limot?
3. Buddaviylikka kim asos solgan?
4. Tilimizdagi boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan qanday so‘zlarni bilasiz?
5. Navro‘z bayrami zamirida qanday umumbashariy orzu-intilishlar mujassam?
5. Rasmlarda qanday qadriyatlarimiz aks etgan?



1



2



3



4

### TESTLAR

#### 1. Qanday qadriyatlar umumbashariy qadriyatlar deyiladi?

- A) Zamonaviy qadriyatlar  
 B) Qadimiy qadriyatlar  
 C) Butun insoniyat hayoti uchun qadrlı, ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar  
 D) Kelajakka xizmat qiladigan qadriyatlar

#### 2. Qadimda qaysi yo‘l turli xalqlarning yutuqlaridan bahramand bo‘lishga xizmat qilgan?

- A) Buyuk Xitoy yo‘li  
 B) Buyuk ipak yo‘li  
 C) Ulug‘ Osiyo yo‘li  
 D) Buyuk temir yo‘l

**3. Navro‘z bayrami zamirida mujassam bo‘lgan umumbashariy orzu-intilishlar.**

- A) Sumalak  
 B) Ko‘pkari  
 C) Varrak uchirish  
 D) Tabiatga mehr, ona zamin ne‘matlaridan bahramand bo‘lish, ularni asrab-avaylash

**4. Mamlakatimizda o‘tkaziladigan xalqaro musiqa festivali.**

- A) Registon  
 B) Samarqand  
 C) «Sharq taronalari»  
 D) «Mumtoz maqomlar»

**«BIZ – O‘ZBEKTSTON FUQAROSIMIZ» MAVZUSI  
 BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. Odamning fuqaroligi nimani bildiradi?
2. Fuqaro so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
3. Qadimda fuqaro so‘zi o‘rnida qo‘llangan qanday so‘zlarni bilasiz?
4. Biz qaysi davlatga mansubmiz?
5. Fuqarolik hissidan nima uchun qalbimiz quvonchga to‘ladi?
6. Bizning fuqaro sifatidagi burchimiz nimalardan iborat?
7. Fuqarolik hissi vatanparvarlik fazilatlarining shakllanishida qanday o‘rin tutadi?
8. Fuqarolik burchini sharaf bilan ado etayotgan insonlardan kimlarni bilasiz?
9. Ushbu rasmlardagi fuqarolik burchini ado etayotgan insonlar haqida gapirib bering.



**TESTLAR**

**1. «Fuqaro» so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?**

- A) Xalq  
 B) El  
 C) Grajdantin  
 D) Vakil

## 2. Qadimda qaysi soʻzlar fuqaro soʻzi oʻrnida qoʻllangan?

- |         |                  |
|---------|------------------|
| A) Xalq | C) Tabaa, raiyat |
| B) El   | D) Elat          |

## 3. Biz qaysi davlat fuqarosimiz?

- |                     |                             |
|---------------------|-----------------------------|
| A) Baqtriya davlati | D) Oʻzbekiston Respublikasi |
| B) Kushon davlati   | E) Temuriylar davlati       |

## 4. Bizning fuqaro sifatidagi burchimiz nimadan iborat?

- |                               |                           |
|-------------------------------|---------------------------|
| A) Qonunga amal qilib yashash | C) Teatr va kinoga borish |
| B) Kitob mutolaa qilish       | D) Sayohatga chiqish      |

### «VATANPARVARLIK» MAVZUSI BOʻYICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Vatanparvarlik deb nimaga aytiladi?
2. Vatanni kim dunyoga tanitadi?
3. Vatanparvarlik nimadan boshlanadi?
4. Haqiqiy qahramonlik nima?
5. Jaloliddin Manguberdining jasorati haqida gapirib bering.
6. Jaloliddin Manguberdiga gʻayrat-shijoat baxsh etgan kuch nima edi?

### TESTLAR

#### 1. Vatanni dunyoga tanitadigan insonlar kimlar?

- |                                 |                |
|---------------------------------|----------------|
| A) Haqiqiy vatanparvar shaxslar | C) Katta avlod |
| B) Oʻquvchi yoshlar             | D) Yosh avlod  |

#### 2. Vatanparvarlik nimani anglashdan boshlanadi?

- |              |                     |
|--------------|---------------------|
| A) Oʻzlikni  | C) Vatan tuygʻusini |
| B) Haqiqatni | D) Maʼnaviyatni     |

#### 3. Haqiqiy qahramonlik nima?

- |              |                 |
|--------------|-----------------|
| A) Jasurlik  | C) Oliyjanoblik |
| B) Kamtarlik | D) Fidoyilik    |



#### 4. Jaloliddin Manguberdiga qanday tuyg‘u g‘ayrat-shijoat baxsh etgan?

- A) Botirlik  
B) Yetuklik  
C) Vatan tuyg‘usi  
D) Ona yer tuyg‘usi

#### «VATANNI ULUG‘LASH» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Nima uchun xalqimiz «Yoshlar – Vatan kelajagi» deydi?
2. O‘z kelajagini o‘ylagan davlat nimaga e‘tibor beradi?
3. Yaponiya qanday qilib qudratli davlatga aylandi?
4. O‘tgan asr boshida ma‘rifatparvar ajdodlarimiz qanday jasorat ko‘rsatdilar?
5. Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlarini ayting.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilindi?
7. Bugungi kunda yosh avlodni o‘z ta‘siriga olmoqchi bo‘layotgan qanday xavf-xatarlar mavjud?
8. Ushbu rasmlar asosida yurtimizda yosh avlod uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida so‘zlab bering.



#### TESTLAR

##### 1. Kim yoshlar tarbiyasiga e‘tibor beradi?

- A) Tarix haqida o‘ylagan xalq  
B) Bugungi kun haqida o‘ylagan jamiyat  
C) O‘z kelajagini o‘ylagan davlat  
D) Ma‘naviyat haqida o‘ylagan millat

##### 2. Yaponiya qanday davlat?

- A) Katta davlat  
B) G‘arb davlati  
C) Rivojlanayotgan davlat  
D) Rivojlangan qudratli davlat

**3. Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?**

- A) Ta’limni tarbiyadan ajratib bo‘lmaydi
- B) Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir
- C) Tarbiya – buyuk boylik
- D) Tarbiya – ustozdan

**4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qaysi yili qabul qulingan?**

- A) 2004-yil
- B) 2009-yil
- C) 1997-yil
- D) 1991-yil

**«TA’LIM VA TARBIYA UYG‘UNLIGI» MAVZUSI BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**



1. Kimni sog‘lom deyish mumkin?
2. Barkamol so‘zining ma’nosini bilasizmi?
3. Jismoniy mashqlar nimani tarbiyalaydi?
4. Nimalar ruhning tarbiyasiga xizmat qiladi?
5. Ushbu rasmlardan jism va ruh tarbiyasiga xizmat qiladigan holatlarni ko‘rsating.



6. Buyuk ajdodlarimizning jasoratlari haqida misollar keltiring.
7. Jasorat ko‘rsatib jahon chempioni bo‘lgan mashhur bokschimiz kim?
8. Yoshlarga bag‘ishlab yozilgan noyob kitobning nomini ayting.

**TESTLAR**

**1. Barkamol so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?**

- A) Sog‘lom
- B) Jasur
- C) Yetuk, mukammal
- D) Baxtiyor

**2. Kubada jahon chempioni bo'lgan mashhur bokschimiz kim?**

- A) Artur Grigoryan  
B) Abbos Atoyev  
C) Elshod Rasulov  
D) Rufat Risqiyev

**3. Yurtimizda qaysi yil «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilingan?**

- A) 2005-yil  
B) 2007-yil  
C) 2000-yil  
D) 2010-yil

**4. Prezidentimizning yoshlarga bag'ishlab yozilgan kitobi qanday ataladi?**

- A) «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»  
B) «Olloh qalbimizda, yuragimizda»  
C) «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»  
D) «Vatan va xalq mangu qoladi»



\* \* \*

*Aziz o'quvchi, o'ylaymizki, hind xalqining buyuk farzandi, Hindistonda XX asrning 30-yillarida boshlangan milliy ozodlik harakatining yo'l boshchilaridan biri Javoharla'l Neruning (1889–1964) quyidagi fikrlari ham sizning Vatan haqidagi tasavvurlaringizni kengaytirishga xizmat qiladi.*

*Butun hayotini yurt ozodligi uchun baxsh etgan bu zotning taqdiri nihoyatda ibratli. U milliy ozodlik ruhida g'oyalari uchun Hindistondagi ingliz mustamlaka hokimiyati tomonidan qamoqqa tashlangan va o'n yildan ziyod umrini tutqunlikda o'tkazgan. 1947-yilda Hindiston mustaqillikka erishgach, Neru mamlakat Bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri lavozimlarida ishlagan. Hind xalqi o'rtasida u «Yangi Hindiston bunyodkori» degan e'tirofga sazovor bo'lgan.*

*Neru qamoqda yotgan kezlari Vatan mustaqilligi haqida o'ylash bilan birga, otalik burchini ado etishni ham unutmagan – qizi Indiraga dunyo tarixi haqida ko'plab xatlar yozgan. Bu xatlarda jahon tarixi, insoniyat taqdiridagi eng muhim voqealar Vatan manfaatlarini nuqtayi nazaridan yoritib berilgan. Neru shu tariqa qizining qalbiga Vatan tuyg'usini singdirishga, uni mustahkam irodali, yuksak aql-zakovatli inson, o'z xalqiga munosib farzand etib tarbiyalashga harakat qilgan. Neruning qizi Indira keyinchalik otasining izidan borib, atoqli siyosatchi va davlat arbobi, Hindistonning vatanparvar va fidoyi farzandi bo'lib yetishgan. Shubhasizki, uning bu darajaga yetishishida otasining tarbiyasi, jumladan, qamoqxonadan yo'llagan maktublari ham katta o'rin tutgan.*

*Ko'p yillar davomida Hindiston Bosh vaziri bo'lib ishlagan, o'z mamlakatining ravnaqiga, dunyo xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan Indira Gandi o'sha xatlarning yozilishiga sabab bo'lgan mashhur ayoldir. Afsuski, ma'rifatli, dono siyosatchi hind xalqining dushmanlari tomonidan o'ldirilgan. Indira Gandining o'g'li Radjiv Gandi ham bobosi va onasining yo'lidan borib, taniqli davlat arbobi bo'lib yetishgan va taassufki, u ham yovuzlikning qurboni bo'lgan. Hozirgi vaqtda uning ishini rafiqasi Soniya Gandi davom ettirmoqda.*

*Javoharla'l Neruning qiziga yozgan maktublari uch jildga to'planib, «Jahon tarixiga bir nazar» nomi bilan chop etilgan. Sizning e'tiboringizga*

*havola etilayotgan ushbu maktubda ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur to'g'risida hikoya qilinadi, bu buyuk zotning Hindiston rivojiga qo'shgan hissasiga katta baho beriladi.*

## **Bobur**

*1932-yil 3-sentabr*

Men senga Bobur haqida ilgari ham ba'zi narsalarni hikoya qilgan edim. U Temur naslidan edi. Bobur dunyodagi eng dilbar va ma'rifatli insonlardan biri bo'lgan. U tor mazhabchilik va diniy aqidaparastlik qarashlaridan xoli edi. Gullarni va bog'larni sevardi, Hindiston jazirasida o'zining O'rta Osiyodagi Vatanini tez-tez eslab turardi. Bobur Samarqand hukmdori bo'lganda 11 yashar bola edi<sup>1</sup>. Bu vazifani uddalash uncha-muncha katta odamning ham qo'lidan kelmas edi. Uning atrofini dushmanlar qurshab olgandi.

Yosh o'g'il bolalar va qizlar maktabga qatnaydigan mana shu yoshda u qo'lga qilich olib, jang maydonlarida kurashlar olib bordi. U o'z taxtini boy berib, uni yana qaytadan qo'lga kiritdi va o'zining dolg'ali hayotida qanchadan-qancha sinovlarga duch keldi. Shunga qaramasdan, adabiyot, she'riyat va san'at bilan shug'ullanishga vaqt topdi. Yoshlik shijoati uni tinch yashashga qo'y-mas edi. Yosh shahzoda Kobulni zabt etgach, Hindikush tog'idan oshib, Hindistonga bostirib kirdi. Boburning lashkari uncha ko'p emas edi, lekin unda o'sha paytlari Yevropa va G'arbiy Osiyoda qo'llana boshlagan yangi rusumdagi zambaraklar bor edi. Ushbu jangda unga qarshi kurashgan behisob jangari to'dalar ana shu yaxshi o'rgatilgan kam sonli lashkar tomonidan zambaraklar yordamida batamom tor-mor etiladi va Bobur zafar qozonadi.

<sup>1</sup> Neru o'z xatlarini qamoqxonada yozgani, qo'l ostida zarur kitoblar bo'lmagani uchun ba'zan noaniqliklarga ham yo'l qo'ygan. Bobur 11 yoshida emas, 12 yoshida Farg'onada podshoh bo'lgan. Bu haqda uning o'zi «Boburnoma»da «Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podsho bo'ldum», deb yozadi.

Lekin bu buyuk zot taqdiridagi qiyinchiliklar shu bilan barham topib qolmaydi, uning hayoti yana necha bor xavf-xatarlarga duch keladi. Bir gal uning hayoti qil ustida turganida, lashkarboshilari shimolga qarab chekinishni maslahat beradilar. Biroq u matonatli inson edi, shu bois, ortga chekingandan ko‘ra, o‘limni afzal bilurmen, deb javob beradi.

U mayni yaxshi ko‘rardi. Ammo o‘z hayotining mana shu qaltis onlarida ichishni tashlashga qaror qiladi va o‘zining barcha jomlarini sindirib tashlaydi. U o‘shanda g‘alaba qiladi va o‘z ahdigga sodiq qolib, mayni qaytib og‘ziga olmaydi.

Bobur Hindistonda bor-yo‘g‘i to‘rt yil yashadi. Keyin u vafot etdi. Bu to‘rt yil muttasil jangi jadallar ichra kechdi, uning oromi yo‘q edi. U Hindistonda begona va yot hukmdor bo‘lib qolaverdi, chunki bu diyorni yaxshi bilmas edi.

Bobur Agra shahrida oliymaqom poytaxt barpo etdi. Shu maqsadda Konstantinopol – Istanbuldan mashhur bir me‘morni olib kelish uchun maxsus odam yuboradi.

U Hindiston haqida, uning hayvonlari va gullari, daraxt va mevalari to‘g‘risida hikoya qiladi, hatto baqalarni ham esdan chiqarmaydi. O‘z Vatanidagi qovunlar, uzumlar va gullarni eslab, uning qalbi cheksiz sog‘inch va iztirobga to‘ladi.

Ayni paytda Hindistondagi odamlardan ko‘ngli qolganini ham yashirib o‘tirmaydi. Shohning yozishicha, bu yerda ularning foydasiga gapiradigan biror-bir jonni uchratmagan. Ehtimol, u o‘n yil davom etgan jangi jadallar sabab, bu yerdagi xalqni o‘rganishga fursat topmagandir, ancha madaniyatli toifalar esa yangitdan paydo bo‘lgan istilochi hukmdor bilan muloqot qilgisi kelmasdi.

Balki chetdan kelgan odamga boshqa xalq hayotini anglash, madaniyatini tushunish qiyin bo‘lgandir. Nima bo‘lganda ham, Bobur bu zaminda ancha muddat hukmronlik qilib kelgan afg‘onlardan ham, aksariyat mahalliy xalqdan ham qoyil qoladigan biror-bir xislat topmagan. U g‘oyat sinchkov edi, garchi chetdan kelgan odam sifatida biroz oshirib yuborgan, deb hisoblaganimizda ham, uning hikoyalari o‘sha paytlarda Shimoliy Hindiston achinarli ah-



volda bo‘lganini ko‘rsatadi. Janubiy Hindistonga esa uning qadami yetmagan.

«Hindiston mamoliki, — deb hikoya qiladi Bobur, — vase va purmardum va purhosil<sup>1</sup> viloyat voqe bo‘lubtur. Sharqi va janubi, balki g‘arbi ham Muhit daryosig‘a muntahi<sup>2</sup> bo‘lur. G‘arbi va shimoli Kobul va G‘azni va Kandahor voqe bo‘lubtur. Jami Hindiston viloyatining poytaxti Dehli ermiş».

Ta‘kidlash joizki, Hindiston garchi u zabt etgan vaqtda maydamayda bo‘laklarga bo‘linib ketgan bo‘lsa-da, Bobur uni yagona mamlakat deb tushungan. Hindistonning bunday yaxlitlik g‘oyasi yurtimizning butun tarixi davomida saqlanib qoldi.

Bobur Hindistonni tasvirlashda davom etib, yozadi: «G‘arib mamlakate voqe bo‘lubtur. Bizning viloyatlarig‘a boqa o‘zga olamedur<sup>3</sup>. Tog‘ va daryosi va jangal va sahrosi, mavoze va viloyoti va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli — borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur... Sind suvini o‘tkach, yer va suv va yig‘och va tosh va el va ulus va roh va rasm<sup>4</sup> tamomi Hindiston tariyqidatur<sup>5</sup>... Yana Hindiston baqalari, agarchi o‘shal baqalardektur, vale bu baqalar suvning yuzida yetti-sekkiz qari<sup>6</sup> yuguradurlar».

Keyin u Hindistondagi hayvonlar, gullar, daraxtlar va mevalarni sanab chiqadi. So‘ngra odamlar ta‘rifiga o‘tadi...

«Latofatekim, Hindistonda bor — ulug‘ viloyatdur, — deb hikoya qiladi Bobur. — Va oltun va yarmog‘i qalin<sup>7</sup> bo‘ladur va pashkol havolari bisyor xo‘b bo‘ladur... Yana bir latofati budurkim,

<sup>1</sup> Keng, xalqi ko‘p va boy mamlakat ekan.

<sup>2</sup> Okeanga tutash.

<sup>3</sup> Bizning viloyatlardan mutlaqo farq qiladi.

<sup>4</sup> Rasm-rusum va an‘analar.

<sup>5</sup> Hindistonga xos yo‘sinda.

<sup>6</sup> Qari — qo‘lning uchidan bilakkacha bo‘lgan uzunlikdagi masofa yoki bir gaz. Bir gaz 71 santimetrغا teng. 7–8 qari taxminan olti-olti yarim metrni tashkil etadi.

<sup>7</sup> Oltin va kumushi ko‘p.

har sinfdin va har harfgardin<sup>1</sup> behad va benihoyat ko‘ptur. Har ish uchun va har nima uchun jami muqarrar va muayyandir kim, ota-otalaridin beri ul ish va ul nimani qila kelgandurlar».

Men Boburning «Boburnoma» asaridan kattagina ko‘chirmalar keltirdim. Bunday kitoblar bizga insonni tasvirlab berishga qaratilgan har qanday urinishlardan ko‘ra ko‘proq tasavvur beradi.

Bobur 1530-yilda, qirq to‘qqiz yoshida vafot etdi<sup>2</sup>. Uning o‘limi haqida mashhur bir rivoyat bor. Aytishlaricha, uning to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyun og‘ir betob bo‘lib qolibdi-yu tabiblar dardiga hech bir davo topolmabdi. Shunda Boburning maslahatchilari yaxshi narsalardan xudo yo‘liga qurbonlik qilish kerak, deb kengash beribdi. Boburning otalik mehri jo‘sh urib: «Muhammad Humoyunning mendin o‘zga yaxshiroq nimarsasi yo‘q, men o‘zim tasadduq bo‘layin, xudoy qabul qilsin», – deb, o‘z joni evaziga o‘g‘lining umrini tilashga qaror qilibdi. Shunday azm-u qaror bilan Humoyun yotgan xonaga kirib, uch marotaba uni aylanib: «Men ko‘tardim har ne darding bor», – debdi. Shu lahzadan boshlab Humoyun sog‘ayibdi, Bobur esa holdan toyibdi va bir necha kundan keyin vafot etibdi.

Boburning jasadini Kobulga olib borib, uning o‘zi yaxshi ko‘rgan bog‘da dafn etadilar. Nihoyat, u o‘zi sog‘ingan gullar diyoriga qaytadi.



<sup>1</sup> Kasb va hunar egalari.

<sup>2</sup> Aslida Bobur 47 yoshida vafot etgan. Chunki u 1483-yilda tavallud topgan.

## MUNDARIJA

<b><i>Birinchi bob. Vatan ozodligi – oliy saodat</i></b> .....	3
Eng ulug’, eng aziz ayyom .....	3
Mustaqilligimiz abadiy bo’lsin! .....	9
Vatanimiz poytaxti .....	15
O‘zbekiston Milliy bog‘i .....	21
Buyuk qadamjolar .....	26
Tarixiy xotira .....	32
Qadimiy Registon .....	37
Takrorlash .....	42
<b><i>Ikkinchi bob. Jahon mardni tan oladi</i></b> .....	55
Moddiy va ma’naviy hayot .....	55
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> Oliyjanoblik .....	59
O‘tda yonmaydigan meros .....	62
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> O‘zbekiston buyuk allomalar yurti .....	66
Milliy qadriyatlarimiz .....	70
Umumbashariy qadriyatlar .....	75
Biz – O‘zbekiston fuqarosimiz .....	78
Vatanparvarlik .....	83
<i>Amaliy mashg‘ulot.</i> O‘zbekistonning fidoyi farzandlari .....	87
Vatanni ulug‘lash .....	91
Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi .....	97
Takrorlash .....	104

XAYRIDDIN SULTONOV, MURTAZO QARSHIBOYEV

## VATAN TUYG‘USI

**Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining  
6-sinflari uchun o‘quv qo‘llanmasi**

*To‘ldirilgan va qayta ishlangan 7-nashri*

*Toshkent «Ma‘naviyat» 2015*

Muharrir *B. Umarov*  
Rassom *S. Soin*  
Musahhihlar *O. Pardayev, Sh. Hakimova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Litsenziya AI №189, 2011-yil 10-mayda berilgan. Bosishga 11.05.2015-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70×90<sup>1/16</sup>. Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 8,77.  
Nashr tabog‘i 7,2. Adadi 368259 nusxa. Buyurtma № 15-290.

«Ma‘naviyat» nashriyoti. Toshkent, Taraqqiyot, 2-berkko‘cha, 2-uy. Shartnoma № 32-15.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100129. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy, 2015.

### Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.